



Tadqiqot UZ



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 MART
№26**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
9-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
26-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-9**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
26-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-9**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 26-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 43 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ
ТУТГАН ЎРНИ

1. Imomaddinova Dilafruz Xusain qizi, Yuldashev Gulomjon Zeripboy o'gli, Qodirova Dilfuza Sodiqjon qizi O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY ANAMIYATI	7
2. Ramazonova Dilhayo Ibrohim qizi O'ZBEKISTON BOZOR IQTISODIYOTI SARI.....	9
3. Юсупова Феруза Йўлдошевна ЛИЗИНГ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЗАРУРАТИ.....	10
4. Muxamedaminov Aziz Odiljon o'g'li, Qayumova Aziza Murod qizi SANOAT ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIY VA IJTIMOIIY SAMARADORLIGI.....	12
5. Игамова Шахиня Зикрилловна ЭРКИН РАКОБАТ БОЗОРИДА НАРХ ВА ШАФФОФЛИК	15
6. Muratov Idor BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA INVESTITSIYALARNING O'RNI	17
7. Мухиддин Абдуллаевич Қурбонов МАҚСАДЛИ ФОНДЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ ШАФФОФЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ.....	19
8. Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ В ИННОВАЦИОННОМ РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	25
9. Камиллов Шохижохон Рустамович ЯШИРИН ИҚТИСОДИЁТНИ ЖИЛОВЛАШДА СОЛИҚ СИЁСАТИ МЕХАНИЗМЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ.....	28
10. Ғ.С.Мустафоев “МЕҲНАТ МАРКАЗИ”НИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ.....	30
11. Ғ.С.Мустафоев ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРДА “МЕҲНАТ МАРКАЗИ”НИ ТАШКИЛ ЭТИШДАГИ ВАЗИФАЛАР.....	32
12. Хайтбоева Нигора Бакмаматовна, Эшбаева Шакаржон Махмуджон қизи СANOAT KOPXONALAPИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН МАРКЕТИНГНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	35
13. Сапаева Н.Қ. МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНИШИДА ИНФРАТУЗИЛМАНИНГ АҲАМИЯТИ	38
14. Холмуротов Фозил Сарибоевич ХОРАЗМ ВИЛОЯТИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ РИВОЖЛАНИШ БАРҚАРОРЛИГИНИ СТАТИСТИК ТАҲЛИЛИ.....	40



ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

О‘ЗБЕКISTONDA MILLIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY- IQTISODIY AHAMIYATI.

**Imomaddinova Dilafruz Xusain qizi,
Yuldashev Gulomjon Zeripboy o'gli,
Qodirova Dilfuza Sodiqjon qizi,**

Urganch Davlat Universiteti,
Turizm va iqtisodiyot fakulteti 2- bosqich talabalari

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda turistik xizmatlar samaradorligini oshirish va milliy turizmni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri–turistik mahsulotlarni samarali shakllantirish va ularning raqobatbardoshligini ta‘minlash, xizmat ko‘rsatuvch va iste‘molchilar o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: turizm, milliy turizm, turizm industriyasi, iqtisodiy turizm, turistik salohiyat, jahon, zamon.

Turizm inson faoliyatining va zamonaviy iqtisodiy munosabatlarning muhim sohasi sifatida hozirda butun jahon mamlakatlarining iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim omiliga aylanib bormoqda. Iqtisodiy taraqqiyot tarixi zarvaraqalarida turizm industriyasi orqali o‘z milliy iqtisodiyotini rivojlantirishga erishgan mamlakatlar soni ko‘p. Ushbu sohani rivojlantirishning afzal tomoni shundaki, turistik xizmatlar sohasi rivojlanishi boshqa sohalarning ham rivojlanishiga olib keladi. Milliy turizmni rivojlantirishda turistik korxonalar tomonidan yaratilayotgan turistik mahsulotlar assortimentini kengaytirish, yangi turlarni yaratish, milliy mahsulotlar tarkibida ham maxsus “shop-tur”larni shakllantirish bugungi kunning davr talabidir.

Turistik korxonalari oldida turgan asosiy vazifalardan biri bu- milliy turizmni rivojlantirish orqali potensial turistlar hajmini ko‘paytirishda turistik mahsulotlarni samarali shakllantirish hisoblanadi. Turizm-bir butun falsafiy tushuncha bo‘lib, odamning hayoti va faoliyatining ma‘lum tomonlarini aks ettiradi. Bu – dam olish, sust yoki faol sayr-tomosha, o‘yin-kulgi, ermak qilish, sport, fan, o‘rab olgan muhitni o‘rganish va bilish, savdo, davolanish, qimor o‘ynash va odamni qiziqtiruvchi boshqa narsalar bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatdir. Ammo, turizm insonning faoliyatlaridan tubdan farq qiladigan strateg‘lib insonning boshqa yurtlarga, mamlakatlarga, kontinentga, o‘zining yashab turgan muhitidan farq qiladigan joyga vaqtincha o‘zgartirishni tavsiflaydigan harakatdir. Turizm bu:

a) turizm aniq maqsadlarga ega bo‘lgan maxsus ommaviy sayohatlar turidir, ya‘ni turistik faoliyatdir;

b) turistik sayohatni tashkil etish va amalga oshirish bo‘yicha turistik strategiy tashkilotlar faoliyatidir.

Bunday faoliyat turizm sanoatining har-xil korxonalari va tashkilotlari orqali o‘zaro aloqasi bo‘lgan tarmoqlar orqali amalga oshiriladi. Hozirgi zamon turizm industriyasi shakli va holati XIX-XX asrda haqiqatdan tez rivojlanishi, texnika va texnologiya ijtimoiy munosabatlarni taraqqiy etgan davrda vujudga keldi va dunyoga tarqaldi. Bugun turizm qudratli dunyo sanoati bo‘lib jahon yalpi mahsulotining 10-12 %ni tashkil etgan yirik kapital va asosiy vositalarni, millionlab xizmatchilarni o‘z domiga tortgan ishlab chiqarish sohasi hisoblanadi. 2005-2007 yillar davomida sayohatchilarning yillik miqdori 4%ni tashkil etgan bo‘lsa, Butunjahon Xalqaro Turistik tashkilotining bergan ma‘lumotiga qaraganda 2006 yilda turistlar soni 194 mln. 2007 yilda 616 mln., 2010 yilda 737 mln., 2012 yilda 970 mln.kishini tashkil etdi. Turizm industriyasidan kelayotgan umumiy daromad 2013 yilda 1 trillionga yaqin bo‘ladi. Turizm industriyasi yirik biznes, mo‘l-ko‘l



boylik va dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan iqtisodiy siyosatdir. Bunday katta miqdorda bo'lgan turistlar xizmatini olib borishga dunyo bo'yicha ko'p millionli mutaxassis va xodimlar bir-biriga bog'liq bo'lgan tarmoqlar band bo'ladi.

Hozirgi vaqtda dunyoda ishlaydigan har 15 kishidan biri turizm industriyasi sohasida ishlaydi. Demak, o'zining tutgan o'rni va mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqsak, turizm – bu iqtisodiy, siyosiy va trate tushunchadir. Boshqacha aytganda turizm – bu kishilarning bo'sh vaqtida o'zining doimiy yashab va ishlab turgan joyidan o'zga mamlakatlarga, joylarga, mamlakat chegarasidan tashqariga yoki mamlakat bo'ylab ko'ngil ochish, dam olish, davolanish, mehmonnavozlik, dunyoni bilish, diniy yoki kasb-hunar maqsadida bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, lekin trate joyida haq to'lanadigan ishni band etmasligi turizm industriyasi faoliyati bilan bog'liq tushunchadir. O'z navbatida ularning faoliyati ham turistik mahsulot tarkibiga kiradi. Jahon xalqaro turizmi sohasidagi barcha mutaxassislar turizm industriyasi rivojlanishi asosida iqtisodiy va ijtimoiy progress yotganini, shu bilan birgalikda turizm industriyasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ham mavjudligini tasdiqlaydilar. Respublikamiz turizm salohiyati bo'yicha Markaziy Osiyoda eng ilg'or hisoblanib, dunyodagi yetakchi o'nta davlat qatoriga kiritilgan. Tur mahsulotlarning umumiy soni o'n mingtadan ortiq bo'lib, juda ko'p son va sifat ko'rsatkichlariga ega. Ammo ayrim milliy turistik mahsulotlar haligacha shakllanmagan yoki xalqaro bozorda sotishga mo'ljallanmagan. Ko'pchilik turmahsulotlar ma'lumot beruvchi sifatida ifodalani, unda mahsulot bo'yicha barcha ko'rsatkichlar to'liq yoritib berilmagan. Tur mahsulotning bozordagi raqobatbardoshligi strategic ahamiyatga ega bo'lgan asosiy omillardan biri hisoblanib, unga ayniqsa baho katta ta'sir ko'rsatadi. Tur mahsulotni baholashda uning sifatiga alohida e'tibor qaratish lozim. Tur mahsulotga xalqaro bozorda bo'lgan ehtiyojning ko'pligi, mahsulotning turli xilligi va raqobatchi turmahsulotning bahosi katta ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, turizm industriyasi deganda mehmonxonalar va boshqa joylashish vositalari, transport xizmatlari, umumovqatlanish ob'yektlari, ko'ngil ochish, bilish, o'rganish, davolanish, din va boshqa ob'yektlar va vositalar, turoperatorlik, turagentlik faoliyatini amalga oshiruvchi hamda turistik ekskursiya, gid-tarjimonlik xizmatlarini ko'rsatadigan tashkilotlar va korxonalar majmuiga tushunamiz. Turizm industriyasi sohasidagi ikki sub'yekt: turoperatorlik va turagentlik bo'lib, ular turistik xizmatlarini ishlab chiqaruvchilar va realizasiya qiluvchilar o'rtasida vositachilik vazifasini bajaradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. SH. Mirziyoyev “O'zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PF 5611- con 05.01.19.
2. Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi matbuot xabarleri, Toshkent 2019.
3. <https://uzbektourism.uz>



ЎЗБЕКИСТОН БОЗОР ИҚТИСОДИЙОТИ САРИ

Ramazonova Dilhayo Ibrohim qizi
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
12 - umumiy o`rta ta`lim maktabi
Iqtisodiy bilim asoslari fani o`qituvchisi
Telefon : +998 99 556 35 00

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta`lim maktablarining Iqtisodiy bilim asoslari fanidan ochiq darslar va sinfdan tashqari tadbirlar, an`anaviy hamda noan`anaviy dars o`tish jarayonida foydalaniladigan usullar va ularning ahamiyati haqida ma`lumot berilgan.

Kalit so`zlar: bozor iqtisodiyoti, investitsiya, ijtimoiy-iqtisodiy, ayirboshlash

Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko`lamli islohotlar puxta o`ylangan reja va dasturlar asosida amalga oshirilmoqda. Shu bois ham, har bir rivojlanish dasturi aniq natijaga erishishni ko`zlab, respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha muhim jabhalarini qamrab olmoqda. Eng muhimi, bu bilan xalqimizning farovon turmushini ta`minlashga muvaffaq bo`linmoqda.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti dunyoning ko`pchilik mamlakatlari uchun xos bo`lib, u turli mamlakatlarda har xil darajada va o`ziga xos xususiyatlar bilan amalga qilmoqda va rivojlanmoqda. Bozor iqtisodiyoti – bu Tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiyot tizimidir. Bozor iqtisodiyotining muhim va umumiy belgilari quyidagilardan iborat: - turli shakllardagi mulkchilikning mavjud bo`lishi va unda xususiy mulkchilikning ustun turishi;

- tadbirkorlik va tanlov erkinligi;
- raqobat kurashining mavjudligi;
- davlatning iqtisodiyotiga cheklangan holda aralashuvi;
- korxonalar va firmalarning ichki hamda tashqi shart-sharoitlar o`zgarishlariga moslashuvchanligi.

Bozor iqtisodiyotining bu belgilari hamma bosqichlari uchun umumiydir. Bozor iqtisodiyoti umumbashariy tizim bo`lganidan hamma mamlakatlar shu yo`ldan borishadi.

2017-2021-yillarda O`zbekistonni rivojlantirish Harakatlar strategiyasining 5 ustuvor yo`nalishidan biri iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo`naltirilgan. Bundan ko`zlangan maqsad, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda yuqori iqtisodiy o`sish sur`atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo`jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo`yicha tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulkchilikni himoya qilish, uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag`batlantirish, hududlar, tuman, shaharlarni kompleks va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari hamda hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etishga erishishdir.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O`zbekistonning munosib o`rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Shodmonov, R. Alimov “ Iqtisodiyot nazariyasi” Toshkent. 2002-y.
2. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. 8-sinf.
3. Internet ma`lumotlari.



ЛИЗИНГ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЗАРУРАТИ

Юсупова Феруза Йўлдошевна,

Урганч давлат университети таянч докторанти,
feruza_yu_4@mail.ru; тел: (97) 221-13-10

Аннотация. Ушбу мақолада лизинг муносабатларини ривожлантиришнинг зарурати бўйича фикрлар ва хулосалар келтирилган.

Калит сўзлар. Лизинг, лизинг функциялари, лизинг афзалликлари, лизинг механизми, бизнес, объект.

Маълумки, инвестициялар жараёнларини молиявий қўллаб-қувватлашнинг асосий замонавий усули лизинг ҳисобланади. Лизинг даври мобайнида объектга эгалик ҳуқуқи лизинг берувчи номида бўлади ва лизинг қарзини тўлиқ узилгандан сўнг, эгалик ҳуқуқи лизинг олувчининг номига ўтади. Лизинг – тадбиркорлик тури бўлиб, вақтинчалик бўш бўлган ёки қарз қилиб олинган пул маблағларини инвестиция қилиш орқали лизинг шартномаси асосида лизинг берувчи лизинг шартномасида кўрсатилган мулкни аниқланган сотувчидан сотиб олиш ва лизинг олувчига тадбиркорлик учун аниқланган тўловлар асосида вақтинчалик фойдаланишга етказиб бериш мажбуриятларини олади. Лизинг фаолияти лизинг берувчи томонидан ўз маблағлари ва жалб этилган маблағлар ҳисобидан лизинг объектининг сотиб олиниши ва уни лизинг шартномаси бўйича лизинг олувчига берилиши борасидаги инвестиция фаолияти туридир.

Лизинг механизмлари ҳозирги кунда иқтисодийнинг реал сектори товар ишлаб чиқарувчиларини зарур ишлаб чиқариш воситалари, биринчи навбатда техника билан жиҳозлашнинг пастлиги ва йўқлиги, маҳсулотларини ишлаб чиқариш учун илғор технологиялардан фойдаланиш шартлари каби муаммоларини ҳал қилишда муҳим асос бўлмоқда. Шу боис, корхоналарининг аксарияти тўлиқ иқтисодий фаолият олиб бора олмайди.

Аксарият ишлаб чиқарувчиларининг асосий муаммоси молиявий ресурсларнинг етишмаслигидир. Чунки, улар замонавий технологиялар ва юқори маҳсулдор объектлардан фойдаланган ҳолда мустақил равишда катта тежамкорликни яратиш ва кенгайтирилган асосда такрор ишлаб чиқаришни амалга ошира олмайдилар. Бундай вазиятларда лизинг ишлаб чиқарувчиларини молиялаштиришнинг мақбул усули ҳисобланади ва у қишлоқ хўжалиги техникалари, балки моддий ва ишлаб чиқариш базасининг бошқа элементларини сотиб олишга имкон беради.

Ҳозирги кунда юртимизда лизинг жозибадорлигини тарғиб қилиш, унинг янги хизмат турларини жорий этиш ва оммалаштириш масалаларига катта эътибор қаратилмоқда. Натижада, соҳада ўзига хос ижобий ютуқларга эришилмоқда.

Давлатнинг қишлоқ хўжалиги лизингида бевосита иштирок этиши ва уни мувофиқлаштириши давлат-хусусий шерикчилиги орқали амалга оширилади. Чунки, соҳанинг барқарор ривожланиши давлат ва бизнеснинг оқилона ва самарали ўзаро боғлиқлигига боғлиқ бўлади. Шу билан бирга, лизинг компаниялари, ишлаб чиқариш корхоналари ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқарувчилар капиталини бирлаштириш масалалари долзарб аҳамият касб этади. Улар иттифоқ тузишда иштирокчиларнинг молиявий манфаатларини назарий жиҳатдан ўрганиш ва улар ўртасидаги ўзаро алоқаларни амалий моделлаштиришни талаб қилади.

Лизинг бир вақтнинг ўзида кредит, молиявий инвестиция ва ижара фаолияти хусусиятларини ўз ичига олади. Улар бир-бири билан узвий боғлиқ бўлиб, бизнеснинг янги шаклини ташкил этади. Репродуктив жараённинг бир бўғинида лизингдан олинган таъсир унинг бошқа босқичларида намоён бўлади. Натижада, охир-оқибат бутун ишлаб чиқариш тизими самарадорлигини оширишга олиб келади.

Лизинг бизнесининг бир қанча афзалликларга эга. Яъни, асбоб-ускуналарни ишлаб чиқарувчилар ўз маҳсулотларини лизинг битими асосида сотиш орқали уларнинг сотилмай қолиш ва фойдани йўқатиш рискларидан қутилади. Лизинг компанияси капиталнинг ҳақиқий қийматини сақлаб қолиш ва уни капиталлаштириш мақсадида ўз маблағларини инвестициялайди. Лизинг олувчи ўз маблағларини сарфламай туриб, мол-мулкни қўлга киритиш, ундан фойдаланиш ва уни тасарруф этиш имкониятига эга бўлади. Айни бир



вақтда лизинг олувчи тадбиркорлик фаолиятини юритиш ва лизинг мол-мулкани ишлатиш орқали фойда олиш имкониятини кўлга киритади. Шунга асосан, лизинг муносабатлари куйидаги афзалликларга эга:

- ижара воситасида капиталга эга бўлиш;
- рисксиз капитал инвеститсияларини амалга ошириш;
- лизинг объектини сотиш;
- мол-мулкка манфаатли тарзда эгалик қилиш, фойдаланиш ва тасарруф этиш;
- кам маблағ ёки маблағсиз тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш;
- лизинг мулкдан самарали фойдаланиш;
- муайян замон ва маконда ҳамда иқтисод соҳиблари орасида ресурсларни тақсимлаш;
- фаолиятнинг капитал сифимини пасайтириш;

Лизингни бош функцияси молиявий функция ҳисобланади. Яъни, у тадбиркорни лизинг объектига унинг қийматини бир йўла тўлашдан озод этишда ва унга молиявий воситачининг маблағи ҳисобидан лизинг кредити беришда намоён бўлади. Лизинг муносабатлари лизинг олувчига ҳеч қандай пул маблағи кўймай, мулкга эгалик қилиш, ундан фойдаланиш ва уни тасарруф этиш ҳуқуқига эга бўлиш имконини беради. Шу боис, лизингни молиявий функцияси лизинг олувчига ҳеч қандай сарфларсиз ишлаб чиқариш фаолиятини амалга ошириш имконини беради.

Лизинг битимларини амалга ошириш жараёнидаги ҳуқуқий муносабатлар, жумладан инвестициялаш ва товар билан кредитлаш муносабатлари, олди-сотти ҳуқуқий муносабатлари, ижарага оид ҳуқуқий муносабатлар ва мулкка кафолат муносабатлари лизинг битимларининг асосий қатнашчилари ўртасида шаклланади. Улар ўртасида ушбу ҳуқуқий муносабатлар мажмуаси қарз олиш ва инвестициялаш, товар билан кредитлаш ва ижарага оид муносабатлар, лизинг мулкни харид қилиш шартлари, лизинг битимларини суғурталаш ва солиққа тортиш, лизинг тўловларини тўлаш муносабати билан юзага келади.

Ҳозирги кунда жаҳон амалиётида лизингни хилма-хил турлари Ўзбекистон Республикасининг 1999 йилда қабул қилинган “Лизинг тўғрисида”ги Қонунида келтирилган бўлиб, унда лизингнинг икки тури, яъни молиявий ва оператив турлари белгиланган. Ҳамда ушбу қонунда молиявий ва оператив лизингдан ташқари қўшимча лизинг алоҳида кўрсатилган, шунга мувофиқ лизинг олувчи лизинг берувчининг ёзма розилиги асосида лизинг объектига вақтинчалик эгалик қилиш ва ундан фойдаланиш учун учинчи шахсга топширишга ҳақли бўлади.

2002 йил 13 декабрда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг қонунига биноан “Лизинг тўғрисида”ги қонунида лизингни молиявий тури қолдирилди.

Умуман олганда, лизинг мамлакат иқтисодиётининг ўсишини таъминловчи муҳим бошқариш механизмларидан бири сифатида тан олинган. Лизинг тўғрисидаги қонун ҳужжатлари лизингни амалга ошириш пайтида юзага келадиган муносабатларни тартибга солади ҳамда ушбу Қонун ва бошқа қонун ҳужжатларидан иборат. Айни пайтда лизинг ёрдамида мамлакатдаги ишсизлик ва ўтиш даврида вужудга келадиган муҳим социал масалаларни ижобий ҳал этишга сабаб бўлган. Бугунги кунда лизингни доимий равишда такомиллаштириб борилиши мамлакатимизда ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техник янгилаш ва диверсификация қилиш ҳамда инновацион технологияларни кенг жорий этишда лизинг муносабатларининг ролини оширишга хизмат қилади. Лизинг компанияларининг сонини кўпайтириш келажакда иқтисодиётни ривожланишига олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Д.Ғозибеков ва бошқалар. Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти. Тошкент,: Фан ва технология. 2004 йил, 63-бет.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Лизинг тўғрисида”ги қонуни 14 апрель 1999 й.
3. Г.Набиев, М.Д.Марпатов “Лизинг ғояси, тарихи, ҳуқуқий асослари ва амалиёти”. – Т.: 2004 йил, 33-бет.



SANOAT ISHLAB CHIQUARISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY SAMARADORLIGI

Muxamedaminov Aziz Odiljon o'g'li

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
assistent o'qituvchisi

Telefon +998935910561

azizusmonov1992@gmail.com

Qayumova Aziza Murod qizi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
ТУИТСФИТБГУИР 2-kurs Talabasi

Telefon +998979030797

azizaqayumova3@gmail.com

Annotatsiya : Ishlab chiqarishning umumiy (mutloq) samaradorligi deganda, xarajatlar va resurslarning ayrim turlari bilan solishtirilgan yoki taqqoslangan iqtisodiy samaraning umumiy miqdori tushuniladi. Ishlab chiqarishning umumiy samaradorligi xarajatlar va resurslarning ayrim turlaridan foydalanish darajasini aniqlash va baholash uchun qo'llaniladi va umuman, xalq xo'jaligi bo'yicha, tarmoqlar, korxonalar, kapital qurilish obyektlari bo'yicha hisoblab chiqiladi.

Kalit So'zlar: Bozor iqtisodiyoti, samaradorli, resurslar ishlab chiqarish, mezon, ijtimoiy mehnat, iste'molchilar

Demokratik bozor munosabatlari sharoitida samaradorlikning o'рни va ahamiyati . Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy strategiyasi uzoq vaqtga mo'ljallangan fundamental maqsadlarni o'rtaga qo'yish bilan bir qatorda, bu maqsadlarga erishish vositalari, belgilashni ham o'z ichiga oladi. Bular orasida ishlab chiqarish samaradorligini to'xtovsiz oshirib borish asosiy o'rinda turadi. O'zbekiston davlatining qudratini mustahkamlash, aholining moddiy va ma'naviy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish, ularni mo'ljallanib yaratish, iqtisodiy va ilmiy-texnika sohasida eng rivojlangan davlatlar qatoridan joy olish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga bevosita bog'liqdir. Mustaqillikka erishilganligi, qudratli iqtisodiy va ilmiy-texnik salohiyat yaratilayotganligi, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarning takomillashayotganligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalarini birinchi o'ringa qo'ydi. Samaradorlikni hozirgi kundagi talabdan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish ko'lamini yo'lga qoyish bilan oshirish mumkin. Ya'ni iste'molchilarning xohish va fikrini inobatga olgan holda mahsulotni ishlab chiqarilsa samaradorlik sezilarli darajada oshib boradi.

Binobarin, Respublika Prezidentining ma'ruza va nutqlarida, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida ishlab chiqarishning, jumladan, sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning mohiyati va ahamiyati, dolzarb muammolari, iqtisodiyotni ekstensiv va intensiv taraqqaqiyot yo'liga o'tkazish munosabati bilan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar chuqur va har tomonlama tahlil etib berilmoqda. Ma'lumki, ishlab chiqarishni rivojlantirishda ikki xil omil: miqdor va sifat, ekstensiv va intensiv, ya'ni kengaytiruvchi (uzaytiruvchi), kuchaytiruvchi omillar harakatda bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, agar ishlab chiqarish sohasi kengaytirilsa, ekstensiv suratda kengaygan takror ishlab chiqarish bo'ladi; agar yana ham ko'proq samara beradigan ishlab chiqarish vositalari qo'llaniladigan bo'lsa, intensiv suratda kengaygan, takror ishlab chiqarish yuzaga keladi.

O'zbekiston sanoatida ana shu ikki yondashuvdan oqilona foydalanish natijasida ishlab chiqarishning samaradorligi bosqichma-bosqich o'sib bormoqda. Samaradorli ko'p uchraydigan umumiy tushunchalardan biri bo'lib, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning xilma-xil sohalarida juda keng ishlatiladi. Masalan, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat samaradorligi, o'qish va o'qitish samaradorligi, davolash va davolanish samaradorligi, qabul qilingan qonun va qoidalar hamda yechimlarning samaradorligi va hokazolar. Samaradorlik sanoat ishlab chiqarish faoliyatining «ko'zgusi» hisoblanadi. Bu «ko'zgu»da ishlab chiqarishning barcha natijalarini ko'rish mumkin. Ma'lumki, har bir tarmoq, korxonalar, qolaversa, har bir shaxs o'z ishlab chiqarish faoliyatida maksimum foyda olishga intiladi. Buning uchun ma'lum xarajatlar qiladi. Ana shu



foyda bilan xarajatlar o'rtasidagi farq tarmoq va korxonada faoliyatining samaradorligida ko'zga tashlanadi. Ishlab chiqarishning eng yuqori samaradorligi ishlab chiqarish xarajatlarini minimum darajaga keltirishdan iborat. Bozor munosabatlari sharoitida samaradorlikning alohida o'rni mavjud. Bozor iqtisodiyoti natijalilikni, foydalilikni taqazo etadi. Tartibli bozorga asoslangan iqtisodiyotda eng kam resurs sarflab, ko'p natijaga erishish zarur.

Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida 5 turdagi resurslar tizimi harakatda bo'ladi:

- a) moddiy resurslar;
- b) mehnat resurslari;
- v) moliyaviy resurslar;
- g) energetik resurslar;
- d) axborot resurslari, ya'ni information resurslar.

Mana shu resurslardan oqilona foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin. Bunday faoliyat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning aniq-ravshan yo'nalishlari Oliy Majlis Senati tomonidan qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida ko'rsatib berilgan.

Samaradorlik-bu, foydalilik, natijalilikdir. Ma'lumki, qandaydir natija olish uchun mehnat qilish, ishlash, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish va ma'lum miqdorda xarajat qilish kerak. Samaradorlikni aniqlash uchun natijani shu natijaga erishishga sarflangan xarajatlar yoki resurslar bilan taqqoslash kerak. Demak, samaradorlik ishlab chiqarish faoliyati natijalari bilan ularga erishish uchun sarflangan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarning o'zaro nisbatidir. Samaradorlikni iqtisodiy va ijtimoiy turlarga bo'lish shartli bo'linish hisoblanadi. Moddiy ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan va mehnat xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan natijalarning hammasini iqtisodiy va ma'lum ma'noda, ijtimoiy samara deb aytish mumkin. Bu yerda shuni eslatib o'tish kerakki, iqtisodiy va ijtimoiy tushunchalarning sun'iy bo'lishi haqida bahslashish mumkin. Lekin, iqtisodiy ijtimoiy hayotdan tashqarida bo'lmagani kabi, ijtimoiy hayot ham iqtisodsiz bo'lmaydi. Demak, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki amalga oshirilgan har bir ish ayni vaqtda ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samara keltiradi. Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarishning iqtisodiy natijasini ko'rsatadi. Masalan, mahsulot ishlab chiqarish-boshqaruv, yangi texnika va texnologiyani joriy etish, mehnat sifatini oshirish va hokazolarning natijasi.

Iqtisodiy samara material, mehnat, pul va boshqa resurslarni tejash tufayli erishilgan miqdor. U vaqtni tejash, qurilish muddatlarini qisqartirish, mehnat sarfini tejashish vaqtining zoye ketishini kamaytirish, mablag'lar oborotini tezlashtirish, mahsulot yetishtirish hajmini o'stirish, ishlar sifatini yaxshilash va boshqa natijalar bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy samaradorlik shaxsning har tomonlama kamol topishiga yordam beradigan tadbirlarni amalga oshirish samaradorligini ifodalaydi. U mehnat va turmush sharoitlari yaxshilanishida, xodimlar malakasini oshirishda aks etadi va asosiy oziq-ovqat, sanoat tovarlarining aholi jon boshiga

iste'mol qilinishi, ijtimoiy iste'mol fondlaridan beriladigan nafaqa va imtiyozlar, kadrlar tayyorlash bo'yicha xarajatlarning o'sishi bilan tavsiflanadi. Ushbu samaralar ishlab chiqarishning o'zida vujudga kelayotganini va birlashib bajarilgan mehnat tufayli ishlovchilar o'rtasidagi munosabatlar ta'riflanishini nazarda tutsak, ularni ijtimoiy-iqtisodiy samara deb atasak bo'ladi. Iqtisodiy samaradorlikning mohiyatiuning mezoni va ko'rsatkichlar tizimida aks etadi. Xorijiy davlatlardagi iqtisodiy samaradorlikga na'zar tashlaydigan bo'lsak, barcha turdagi mahsulotlar bor, shu bilan bir qatorda bir davlatning o'zida bir mahsulotning bir necha turlari mavjud. Haridni amalga oshirayotgan iste'molchi sifati, narx, ko'rinishidan kelib chiqqan holda xohishini qondiradi. Shu boisdan ham import bo'lib kirib kelayotgan mahsulotlardan kora, o'zligining davlatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotni harid qilishadi. Ishlab chiqarish jarayonida tanlov juda ham keng. Bizning yurtimizda ham milliy mahsulotlarga bo'lgan talab kuchaytirishga e'tibor bo'lishi lozim. Misol tariqasida shuni keltirishimiz mumkinki, bir uy jixozlari qatoridagi gilamni olsak, uni o'zimizda ishlab chiqarilganini turlarini qanchalik ko'paytirsak, sifat darajasini oshirsak, shunga qarab narxlarini belgilab borilsa o'zga davlatdan kirib kelayotgan mahsulotni emas, balki milliy mahsulotimizga bo'lgan talab ortadi. Shunda samaradorlik yanada ortadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mezon masalasi iqtisodiy samaradorlik nazariyasining eng muhim sohasi hisoblanadi. Falsafiy ma'noda mezon-bu, asosiy o'lchov, muhim farqli belgi, asosiy nuqtai nazardir. Shular asosidagina u yoki bu sohadagi bizning bilimlarimizning obyektiv haqiqatligini, to'g'riligini va ishonchligini



aniqlash, haqiqatni anglashmovchiliklardan farq qilish mumkin. Ishlab chiqarishning asosiy maqsadiga erishish uchun barcha resurslardan oqilona foydalanish, tayyorlanadigan mahsulotning har biriga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish kerak. Demak, samarani o'Ichaganda mezon sifatida jami ijtimoiy mehnatni tejash, uning unumdorligini oshirish talab etiladi.

Bunday samaradorlikni aniqlash xarajatlar va resurslar samaradorligi darajasini, samaradorlikning asosiy yig'imlarini aks ettiruvchi differensiyalangan ko'rsatkichlarni hisoblab chiqishga asoslanadi. Bunday ko'rsatkichlarga ishlab chiqarishning yoki unda tayyorlanadigan mahsulotning mehnat sig'imi, material sig'imi, fond sig'imi, kapital sig'imi kiradi. Mehnat sig'imi milliy daromad, sof, yalpi, tovar mahsulotning yoki natural shaklda ifodalangan mahsulot birligiga sarflangan xarajat miqdorini tavsiflaydi. Mahsulotning sermehnatliligi muayyan turdagi mahsulotni ishlab chiqarishga sarflangan ish vaqti miqdorini ifodalovchi ko'rsatkichdir.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Karimov I.A. O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. -T.:O'zbekiston,1993-yil; 42bet.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T.:O'zbekiston, 2009-yil, 56bet.
3. Karimov I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohotlar va fuqorolik jamiyatini rivoilantirish konsepsiyasi" //Xalqso'zi, 2010-yil, 13-noyabr.
4. Karimov I.A.. Bosh maqsadimiz-keng ko'lamlislohotlar va modemizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. //Xalq so'zi, 2013-yil, 19-yanvar.
5. Karimov. I.A. 2014yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. //Xalq so'zi, 2014-yil, 18-yanvar



ЭРКИН РАКОБАТ БОЗОРИДА НАРХ ВА ШАФФОФЛИК

Игамова Шахиня Зикриллоевна

Бухоро вилоят буйича ғазначилик бошқармаси тўловлар
ва молиявий бошқариш бўлими бош инспектори
E-mail - igamova_sh@mail.ru,
Телефон - +998914468882

Аннотация. Ушбу мақолада иқтисодиётнинг тармоқларини назорат қилиш ҳамда барқарорлигини таъминлашда АКТ ни жорий этиш, шу жумладан, шаффофликни таъминлашда инсон омилини камайтириш масалалари кўриб чиқилган.

Калит сўзлар. Инновация, нархлар назорати, ишончли ҳисобот, ишончли таҳлил, ахборот, анъанавий технология, йўл харита, шаффофлик.

“Инновация – бу келажак дегани. Биз буюк келажакимизни барпо этишни бугундан бошлайдиган бўлсак, уни айнан инновацион ҳолатлар, инновацион ёндашув асосида бошлашимиз керак”

(Ш.М.Мирзиёев.)

Нархларни назорат қилиш - бу бозорда товарлар ва хизматлар учун олинадиган нархларга нисбатан ўрнатилган ҳукуматлар томонидан белгиланган чекловлар ҳисобланади. Бундай назоратни амалга ошириш, танқислик даврида ҳам товарларнинг арзонлигини сақлаб қолиш, инфляцияни секинлаштириш ёки алтернатив товарларни етказиб берувчилар учун минимал даромадни таъминлаш ёки энг кам даромадга эришишга интилишдан келиб чиқиши мумкин. Нархларни назорат қилишнинг иккита асосий шакли мавжуд:

- нархларнинг максимал чегараси;
- нархлар минимал даражаси.

Нархларни назорат қилишнинг 1-усулига мисол сифатида жаҳон тажрибасида, ижара нарх ошишини чеклайдиган ижара ҳақини бошқариш, бунда ижара нархларининг максимал нархи белгиланади.

Давлат раҳбари ўзининг Олий Мажлисга Мурожаатномасида иқтисодиётимизнинг ҳозирги ҳолати бўйича қуйидаги фикрларини айтиб ўтди:

- Иқтисодиётнинг барқарор ўсиши, биринчи навбатда, етакчи соҳалар ривожига бевоқифлик;
- қайси соҳада юқори қийматга эга маҳсулот яратилса, биз ана шу соҳани биринчи навбатда қўллаб-қувватлаймиз;
- шунинг учун иқтисодиёт ривожига жиддий туртки берадиган соҳаларни ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқиш ва амалга оширишимиз лозим;
- шунингдек, молия бозорлари, жумладан, фонд бозорини ривожлантириш ҳам янги иқтисодий шароитда асосий мақсадларимиздан бири бўлиши керак;
- янги молиявий инструментларни жорий этиш ва облигациялар чиқариш орқали, банк хизматлари қўламини янада кенгайтириш, илғор ахборот технологиялари асосида банк тизимини ривожлантириш зарур;
- инвесторлар мамлакатимизда ўзини имкон қадар эркин ҳис қилишлари учун валюта бозорини янада эркинлаштириш талаб этилади;
- шунингдек, бир ой муддатда ташқи бозордаги ўзгаришларнинг иқтисодиётимизга салбий таъсирини камайтириш бўйича “йўл харитаси”ни ишлаб чиқиш лозим¹.

Нархларни эркинлаштириш ҳамда уларни тўғри назорат қилиш учун албатта АКТ ни соҳага кенг жорий этиш зарур.

Шу билан бирга, АКТ аввалги анъанавий технологиялар билан таққослаганда бир қатор хусусиятлар билан ажралиб туради, шу сабабли уларнинг иқтисодий ўсиши ва миллий иқтисодиётни ривожланишига таъсири сифат жиҳатидан фарқ қилади. Биринчидан, бу АКТ тарқалишининг глобал хусусияти - улар самарадорлик ва самарадорликни ошириш

¹ Правда В. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису, „Правда Востока“



мумкин бўлган деярли барча соҳаларда, шу жумладан менежмент соҳасида қўлланилади. АКТни ривожлантиришнинг юқори тезлиги уларни тарқатиш ва улардан фойдаланиш учун жуда паст маржинал харажатлар билан боғлиқ бўлиб, бу АКТ соҳалари махсулотларининг нисбатан паст нархларида акс этади.

Бунинг самараси ўлароқ, янги технологияларни иқтисодиётда қўллаш натижасида бошқа анъанавий технологияларга қараганда анча тезроқ ва катта ҳажмда эришиш мумкин. АКТ махсус иқтисодий фойда келтиради, чунки улар замонавий иқтисодиётда асосий рол ўйнайдиган маълумотларни қайта ишлаш ва алмашиш билан боғлиқ¹.

Ишончли ҳисобот, ишончли таҳлил натижаларини олиш бу – энг яхши қарорлар қабул қилишнинг калитидир. Ишончли молиявий ҳисоботнинг асосий хусусияти шаффофликдир. Шаффофлик, мавжуд вазият, қабул қилинган ҳаракатлар ва қарорлар тўғрисидаги маълумотлар бозорнинг барча иштирокчилари учун мавжуд ва тушунарли бўлишни назарда тутлади.

Ахборот - бу ўз вақтида ва ошкора тарқатиш орқали стратегик қарорлардан хабардор қилишдир. Шаффофликни ошириш талаблари кўпинча фойдали ва керакли маълумотлар, айниқса салбий маълумотлар яширилаётганлигини кўрсатади. Бугунги кунда ахборот билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилиш учун жавобгарлик регуляторлар зиммасида.

Шуни ҳам ёдда тутиш керакки, АКТ ғарб давлатлари иқтисодиёти таркибида бўлган бизнес билан боғлиқ хизматлар соҳасида (банк, молия, консалтинг, маркетинг ва бошқалар) фаол қўлланилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Правда В. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису,,Правда Востока».
2. Ходиев Б. Ю. Узбекистан: построение» цифровой экономики» //Российский внешнеэкономический вестник. – 2017. – №. 12..

¹ Ходиев Б. Ю. Узбекистан: построение» цифровой экономики» //Российский внешнеэкономический вестник. – 2017. – №. 12..



BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA INVESTITSIYALARNING O'RNI

Muratov Ildor
O'zMU magistranti
+998977325356

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy sharoitlarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsiyalarning ahamiyati va obyektiv zaruriyati yoritilgan. Shuningdek, milliy iqtisodiyotga investitsiyalar jalb etishning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, investitsiya, xorijiy investitsiya, asosiy kapital, modernizatsiya, investitsion siyosat.

Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash, xalqaro bozorda o'z o'rnini, mavqeiga ega bo'lishi, raqobatbardosh hamda sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun iqtisodiyotga investitsiyalar jalb qilish, ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat iqtisodiyoti birinchi galda uning taraqqiy etishidagi muhim omil unga kiritilgan investitsiyalar va uning samaradorligiga bog'liqligi bir qancha mamlakatimiz va xorij iqtisodchilari tomonidan nashr etilgan o'quv adabiyotlari va manbalarida qayd etilgan. Chunki, investitsiyalar ayniqsa, xorij investitsiyalarining mamlakat iqtisodiyotiga kiritish va shu orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bugungi kundagi anchagina dolzarb vazifalar sirasiga kirib bormoqda.

Xorijiy investitsiyalarni mulkchilik shakliga ko'ra xususiy, davlat, xorijiy va aralash investitsiyalarga tasniflash maqsadga muvofiqdir. Xorijiy investitsiyalarni yo'nalish ob'ektiga qarab, moliyaviy va real investitsiyalarga ham ajratish mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy investitsiyalarning tarkibida asosiy o'rinni xususiy mulk egalari investitsiyalari tashkil etadi.

Xorijiy investitsiyalar tarkibidagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga bo'lib, ular ichki jamg'armalar darajasidan ko'proq miqdorda kapital jamg'arish, to'lov balansini qo'llab-quvvatlash va import qilish imkoniyatini kengaytirish orqali iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar alohida korxonalarining faoliyati, ishlab chiqarish va kapital samaradorligini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va menejment tizimini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayonlar mahsulot va xizmatlar etkazib beruvchilar, buyurtmachilar, raqobatchilarga bilvosita ta'sir ko'rsatish orqali ichki bozorni rivojlantirish, ishchilarning malakasi va amaliy tajribasini oshirishda yordam beradi. Xorijiy investitsiyalarning yuqorida qayd etilgan turlari o'ziga xos belgilarga ega.

Investitsiya siyosati—investitsiya faoliyatini jonlantirish, iqtisodiyotni yuksal-tirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ijtimoiy muammolarni hal qilish maqsadida iqtisodiy sub'ektlar uchun qulay xo'jalik yuritish sharoitlarini yaratishga qaratilgan maqsadli tadbirlar majmuidir. Davlatning tashqi investitsiya siyosati – bu tashqi investitsion oqimlarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari tizimidir. Investitsiya siyosati davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasidagi aniq maqsadga qaratilgan faoliyatning eng muhim doimiy vositalaridan biri hisoblanadi. Bunday siyosat davlatning butun siyosiy sohasining asosiy o'zagini tashkil etadi yoki boshqacha aytganda, bu butun davlat siyosiy faoliyatining negizidir. Mamlakat ishlab chiqarish salohiyatining oshishi, iqtisodiy o'sish sur'atlari, moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish hajmi va sifatining oshishi, jamiki infratuzilmaning rivojlanishi ko'p jihatdan investitsiya-larga va investitsiya siyosatiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining shakllanishi iqtisodiy o'sishning bir qator makroiqtisodiy omillarini keskin darajada kuchaytirilishini taqozo etadi. Bu sohada ro'y berayotgan jarayonlar voqealarning shiddatli almashinuvi bilan izohlanadi. Mamlakatning iqtisodiy o'sishini qo'llab-quvvatlash va jadallashti-rishda hal qiluvchi o'rinni ishlab chiqarish investitsiyalari o'ynashi kerak. Faqat investitsiyalar bazasidagina asosiy kapitalni yangilash hamda shu asosda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va sifatini yaxshilash evaziga mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Biroq, hozirgi yuksak darajada integratsiya-lashgan xo'jalik sharoitida davlatning muvofiqlashtiruvchi roli ob'ektiv ravishda ancha salmoqli bo'lmoqda. Shu munosabat bilan in-



investitsiya sohasiga davlatning faol aralashuviga yaqin yillar mobaynidagi makroiqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida qaramoq lozim deb hisoblaymiz.

Bu strategik maqsad–iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun amalga oshirilmog'i, raqobatbardoshlik va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi mezonlariga javob berishi lozim. Strategik maqsadga erishish makroiqtisodiy rejalashtirish asosida ta'minlanishi mumkinki, investitsiya jarayonlarini davlat yo'li bilan makrodarajada boshqarib turish bunday rejalashtirishning eng muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mamatov B.S. va boshq. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. Toshkent moliya instituti.–T.: «IQTISODMOLIYA», 2013. – 784 b

2. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: «Moliya», 2010. – 324 b.



МАҚСАДЛИ ФОНДЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ ШАФФОФЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ

Мухиддин Абдуллаевич Қурбонов

Ўзбекистон республикаси

Банк-молия академиси катта ўқитувчиси

Тел: 90-644-74-77

Ушбу мақолада мақсадли фондлар фаолият самарадорлигини баҳолашнинг асосий мезони ҳисобланган максимал шаффофликни таъминлаш мезони ўрганилган ва таҳлил қилинган. Мақсадли фондлар максимал шаффофлигини баҳолашда жаҳонда тан олинган икки усули таҳлил қилинган. Халқаро Валюта фондига аъзо 26 та давлат томонидан тасдиқланган ва умумэътироф этилган қоидаларга асосланган Сантьяго принциплари ҳамда Линабург-Мадвелл транспарентлик индекси атрофлича ўрганилган ва таҳлил қилинган. Мақсадли фондлар максимал шаффофлигини таъминлаш бўйича хориж тажрибасини ўрганилган. Мамлакатимизда Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси фаолиятини самарадорлигини баҳолашнинг асосий мезони ҳисобланган жамғарма фаолияти максимал шаффофлигини таъминлашда қатор муаммолар таҳлил қилинган ва жамғарма фаолиятининг максимал шаффофлигини таъминлаш бўйича илмий амалий таклиф ва тавсиялар келтирилган

Таянч сўз ва иборалар: мақсадли фонд, тикланиш ва тараққиёт жамғармаси, транспарентлик индекси, инвестициялар, иқтисодий самарадорлик

ISSUES OF ENSURING THE TRANSPARENCY OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS

This article examines and analyzes the criteria for maximum transparency, which is the main criterion for evaluating the effectiveness of sovereign funds. Two globally recognized methods for assessing the maximum transparency of sovereign wealth funds have been analyzed. The Santiago Principles and the Linaburg-Madwell Transparency Index, approved by 26 member countries of the International Monetary Fund and based on generally accepted rules, have been studied and analyzed in detail. Foreign experience in ensuring maximum transparency of sovereign wealth funds has been studied. A number of problems in ensuring the maximum transparency of the Fund's activities, which are the main criteria for assessing the effectiveness of the Fund for Reconstruction and Development in our country, were analyzed and scientific and practical suggestions and recommendations were made to ensure maximum transparency of the Fund's activities.

Keywords: sovereign wealth fund, recovery and development fund, transparency index, investment, economic efficiency

Кириш

Миллий иқтисодиётимизга хорижий инвестицияларни жалб этиш учун қулай шарт-шароитлар яратиш, инвестиция лойиҳаларининг молиявий иқтисодий самарадорлигини баҳолашда давлат ва яқка тартибда ёндашувни таъминлаш, бюрократизм, расмиятчилик ва сансоларлик фактларига қатъиян чек қўйиш, экспертиза натижалари учун мансабдор шахсларнинг масъулиятини ошириш мақсадида сўнги йилларда Ўзбекистон Республикаси Президентининг бир қанча Қарор ва Фармонлари қабул қилинди. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги, 2019 йил 8 январдаги ПФ-5614-сонли “Иқтисодиётни янада ривожлантириш ва иқтисодий сиёсат самарадорлигини оширишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2019 йил 17 январдаги “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-5635-сонли Фармонлари, 2017 йил 18 декабрдаги ПҚ-3437-сонли “Ўзбекистон Республикасининг



ривожланиш давлат дастурларини шакллантириш ва молиялаштиришнинг янги тартибини жорий этиш тўғрисида”ги Қарорлари қабул қилинган. Бундан ташқари комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш бўйича вазифаларнинг самарали бажарилишига, мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларга ғов бўлаётган омилларни ўз вақтида аниқлаш ва бартараф этишга тўсқинлик қилаётган қатор камчиликларни бартараф этиш бўйича Президент Ш.Мирзиёев ўзларининг ҳар бир нутқларида бу масалани алоҳида таъкидлаб ўтишлари асносида миллий иқтисодиётни барқарор ривожлантириш ва халқаро майдонда ўз ўрнига эга бўлиши учун инвестиция лойиҳаларининг аҳамияти устувор эканлигини белгилайди.

Мамлакатимизда иқтисодиётнинг етакчи, авваламбор базавий тармоқларини модернизация қилиш ва техник қайта жиҳозлаш бўйича лойиҳаларни, шунингдек, самарали таркибий ўзгаришлар ва инвестиция сиёсатини амалга оширишда Ўзбекистон Республикаси Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси муҳим ўрин эгаллайди. Жамғарманинг энг асосий вазифаларидан бири – иқтисодиётнинг етакчи тармоқларини ривожлантириш, ишлаб чиқариш инфратузилмасининг шаклланиши билан боғлиқ устувор вазифаларни амалга оширишдаги стратегик инвестиция лойиҳаларини молиялаштиришдан иборат.

Мамлакатимизда Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси фаолиятини самарадор-лигини баҳолашнинг асосий мезони ҳисобланган жамғарма фаолияти максимал шаф-фофлигини таъминлашда қатор муаммолар мавжудлиги жамғарма инвестицион жараёнларининг фаоллашувига, ижтимоий инфратузилмани ривожлантиришга, инвестици-ялардан фойдаланиш самарадорлигига салбий таъсир кўрсатмоқда. Мазкур ҳолатлар инвестиция дастурларини шакллантириш тартиби, уни молиялаштириш механизм-ларини тубдан қайта кўриб чиқишни, амалга оширишга таклиф этилган лойиҳаларни танлаб олишнинг шаффофлиги ва самарадорлигини оширишни талаб қилади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев юқори иқтисодий ўсишга эришиш ва кучли ижтимоий ҳимояни таъминлашда инвестицияларнинг муҳимлигини қайд этар экан, шу пайтгача бу борадаги ишлар пала-партиш бажариб келинганини танқид остига олган ҳолда, қуйидагиларни таъкидладилар: “Лойиҳалар пухта ҳисоб-китоб қилинмагани, уларни амалга оширишга инвесторларнинг ўз маблағлари жалб этилмагани оқибатида кўплаб корхоналар банкрот бўлган. Уларни соғломлаштириш вазифаси зиммасига юкланган тижорат банклари ҳам катта зарар кўрган. Шу боис банкрот корхоналарни банklar балансига бериш амалиётига чек қўйилди. Юзаки ўтказилган таҳлиллар оқибатида лойиҳалар фойдаланишга қабул қилинганидан кейин ҳам ўзини оқламаган-хомашё йўқлиги, энергия ва газ билан таъминланмагани, иқти-содий жиҳатдан самарасиз бўлгани сабабли махсулот ишлаб чиқариш ўзлаштирилмай қолган”.

Юқоридагилардан келиб чиқиб бугунги кунда мамлакатимизда айрим маълу-мотларни расман чоп этиш бўйича чекловларни олиб ташлаш жуда долзарб масала ҳисобланади. Бунда мамлакатдаги бюджетдан ташқари мақсадли жамғармалар хусусан Ўзбекистон Республикаси Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси фаолиятининг максимал шаффофлигини таъминлаш алоҳида аҳамият касб этади. Қуйидаги маълумотларда ҳам бюджетдан ташқари фондлар хусусан Ўзбекистон Республикаси Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси маблағларининг давлат консолидациялашган бюджет таркибидаги улуши сезиларли даражада ўзгарганлигини кўриш мумкин.

2021 йил учун Ўзбекистон Республикаси Консолидациялашган бюджетининг жамланма параметрлари ҳамда 2022-2023 йилларга бюджет мўлжаллари

Т/р	Кўрсаткичлар	2021 йил учун прогноз	Бюджет мўлжаллари:	
			2022 йил	2023 йил
I.	Консолидациялашган бюджет даромадлари	178 712,4	208 371,3	238 954,0
1.	Давлат бюджети даромадлари	147 202,3	173 550,2	200 708,6
2.	Давлат мақсадли жамғармалари даромадлари	26 173,9	28 251,7	30 544,5
3.	Ўзбекистон Республикаси Тикланиш ва тараққиёт жамғармасига тушумлар	5 336,2	6 569,4	7 700,8
II.	Консолидациялашган бюджет харажатлари	216 246,6	231 338,9	258 096,0
1.	Давлат бюджети харажатлари	149 950,5	163 780,4	183 675,0
2.	Давлат мақсадли жамғармалари харажатлари	40 772,5	46 709,1	51 720,2



3.	Ўзбекистон Республикаси Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси маблағларининг сарфланиши	13 423,6	6 569,4	7 700,8
4.	Ташқи қарз ҳисобидан давлат дастурларига харажатлар	12 100,0	14 280,0	15 000,0
III.	Давлат мақсадли жамғармаларига трансфертлар	15 928,9	17 930,2	21 097,2
IV.	Консолидациялашган бюджет сальдоси(профицит +, дефицит -)	-37 534,2	-22 967,6	-19 142,1
V.	Давлат бюджети ва Давлат мақсадли жамғармалари сальдоси (профицит +, дефицит-)	-17 346,8	-8 687,6	-4 142,1
VI.	Давлат қарзларини сўндириш	7 767,7	10 316,8	12 478,2

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили

Мақсадли фондлар фаолият самарадорлигини кўрсатувчи мезонлардан бири фондлар фаолиятининг максимал шаффофлигини таъминлашни жуда кўп иқтисодчи олимлар ўзларининг илмий изланишларида баён қилганлар. Булардан Россиялик иқтисодчи К.Пупынин ўзининг илмий изланишларида, мақсадли фондлар фаолият-ининг шаффофлик масаласини биринчи ўринга кўтариб, фонд фаолияти шаффоф-лигини таъминламаслик фонд ривожланишига тўсиқ бўлувчи муаммо сифатида эъти-роф этган.

Яна бир Россиялик иқтисодчи Е.Васин мақсадли фондлар фаолияти самара-дорлигини баҳолаш мезонларини 7 та гуруҳга ажратган ҳолда мақсадли фондлар фао-лиятининг максимал шаффофлигини таъминлашни асосий мезон сифатида қайд этиб ўтган.

Халқаро Валюта Фонди томонидан тузилган махсус ишчи гуруҳи томонидан мақсадли фондлар фаолияти максимал шаффофлигини таъмин-лашга алоҳида эътибор қаратиб Сантьяго принциплари ишлаб чиқилган. Бунга кўра шаффофлик принциплари бу-иқтисодиёти ривожланган мамлакатлар ва бозор энди шаклланаётган мамлакатлар мақсадли фондлари бошқарувчиларининг фондлар фаолиятини янада аниқроқ тушунишни таъминлайдиган комплексли асослар яратиш бўйича биргаликдаги ҳаракатлари натижасидир дея таъриф берилган.

Суверен фондлари институти ходимлари Карл Линабург ва Майкл Мадзуэлл том-онидан мақсадли фондлар фаолиятининг шаффофлигини баҳолаш учун Линабург-Мадзуэлл транспарентлик индекси ишлаб чиқилган.

Тадқиқот методологияси

Тадқиқотнинг асосий мақсади мақсадли фондлар фаолият самарадорлигини баҳолашнинг асосий мезони ҳисобланган максимал шаффофликни таъминлаш мезонини ўрганиш ва таҳлил қилиш натижасида мамлакатимизда Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси фаолиятининг максимал шаффофлигини таъминлаш бўйича илмий-амалий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат. Тадқиқот жараёнида таққослаш, гуруҳлаш ва иқтисодий статистик усулларида кенг фойдаланилди. Тадқиқот натижасида Тикланиш ватараққиёт жамғармаси фаолиятининг максимал шаффофлигини таъминлаш бўйича хулосалар қилиниб, жамғарма фаолиятининг шаффофлигини таъминлашга оид илмий-амалий таклифлар ишлаб чиқилди.

Таҳлил ва натижалар

Мақсадли фондлар шаффофлигини таъминлашнинг зарурати бир томондан мақсадли фондлар маблағлари шаклланиши билан изоҳланса, иккинчи томондан

фонд маблағларидан самарали фойдаланиши билан белгиланади. Жаҳон амалиётидан кўришимиз мумкинки аксарият мамлакатларда мақсадли фондлар даромадлари стратегик маҳсулотлар экспортдан тушадиган маблағлар ва олтин валюта захиралари асосида шаклланган. Бу маблағлар манбаларида нафақат бугунги авлод балки келажак авлодларнинг ҳиссаси борлиги шаффоф бошқарувнинг зарурлигини кўрсатади.

Мақсадли фонд маблағларидан самарали фойдаланиш, маблағлар мақсадлилиги, манзиллилигини таъминлашда, фонд маблағларини талон-тарожликка йўл қўй-масликда фонд фаолияти шаффофлиги муҳим омил саналади. Дунё амалиётда мақсадли фондлар фаолияти самарадорлигини баҳолашда максимал шаффофликни таъминлаш мезони асосий мезонлардан ҳисобланиб, уни аниқлашнинг икки хил усули кенг тарқалган.

Биринчи усул мақсадли фондлар фаолияти транспарентлиги ёки ахборот шаффоф-лиги даражаси тушунарли кўрсаткичи сифатида, суверен фондлари институти ход-имлари Карл Линабург ва Майкл Мадзуэлл томонидан ишлаб чиқилган “Линабург-Мадзуэлл” транспарентлик индекси ҳисобланади. “Линабург-Мадзуэлл” транспарентлик индекси ўз ичига 10 та кўрсаткични олиб, ҳар бир бажарилган кўрсаткичга 1 балл қўшиш принципи



асосида баҳоланади. Бу кўрсаткичларни қуйидагича кўришимиз мумкин.

- Фонд фаолияти тарихи, ташкил топиш сабаблари, молиявий маблағлари шакллантириш манбалари тавсифи, давлат мулки таркибини тақдим этиши

- Фонд йиллик ҳисоботларининг мустақил аудиторлик текширувларини амалга оширилиш натижаларини тақдим этиши

- Фонднинг Холдинг компаниялар мулкидаги улуши ва холдинг компанияларнинг географик жойлашуви тўғрисидаги маълумотни тақдим этиш

- Фонд инвестицион портфелининг бозор қиймати, фонд даромадлиги, rischi, шунингдек фонд бошқарув харажатлари тўғрисидаги маълумотларни тақдим этиш

- Фонд инвестициялашнинг этика меъёрларига риоя қилиш мажбурияти билан инвестиция сиёсатини амалга ошириш даражаси

- Фонд фаолияти аниқ мақсадлар ва стратегиялар бўйича иш олиб бориши

- Фонднинг шўба корхона ташкилотлари ва уларнинг боғланиш маълумотларини тақдим этиши (агар мавжуд бўлса)

- Фонднинг маблағларини бошқарувчи ташқи менежерларнинг мавжудлиги (агар мавжуд бўлса)


- Фонднинг ўз веб сайтыга эгаллиги

- Фонд бош офисининг манзилени ва боғланиш маълумотларини тақдим этиши.

Масалан мақсадли фонд фаолияти бўйича мурожаатлар учун факс ва телефон рақамлари.

Мақсадли фондлар фаолияти транспарентлиги кўрсаткичлари

Транспарентлик индекси бўйича юқори кўрсаткичга яъни 10 балга эга мақсадли фондлар Норвегия, Янги Зеландия, Чили, Сингапур ва бошқа давлатларга тўғри келади. Мақсадли фондларга эга мамлакатларнинг транспарентлик индекси бўйича кўрсаткичларини қуйидаги расмда кўришимиз мумкин бўлади (1-расм).



1-расм. Мақсадли фондларга эга баъзи мамлакатларнинг Линабург Мадзуэлл транспарентлик индекси бўйича кўрсаткичлари

Юқоридаги расмни таҳлил қилиш натижасида қуйидаги хулосаларни чиқариш мумкин бўлади.

Биринчидан, Даромадлар шаклланиш манбалари ресурс реализациясига боғлиқ бўлмаган мақсадли фондлар даромад манбалари асосан табиий ресурслар экспортдан шаклланган фондларга нисбатан очик, аксинча ресурс реализациясига боғлиқ бўлган фондлар боғлиқ бўлмаган фондларга нисбатан ёпиқ яъни ошкоралиги паст даражада эканлиги билан изоҳланса.

Иккинчидан, мақсадли фондларнинг шаффофлиги географик жихатларга эга. Одатда, Европа, Америка, Австралия мақсадли фондлари нисбатан очик. Буларга Озарбайжон нефт фондини, Норвегия глобал пенсия фондини, Австралиянинг келажак фонди ва бошқаларни киритишимиз мумкин. Яқин шарқ мамлакатлари, Осиё ва Африка мамлакатларидаги мақсадли фондлар нисбатан ёпиқ ҳисобланади. Бунга Венесуела макроиктисодий барқарорлик фонди, Брунейнинг инвестиция агентлигини, Уммон давлат резерв фонди ва бошқаларни киритишимиз мумкин.

Жаҳонда бугунги кунда 30 га яқин мақсадли фондларда маълумотлар эълон қилинмаганлиги сабабли транспарентлик индекси умуман аниқланмаган. Шу жумладан Марказий Осиёдан Ўзбекистон ва Туркменистон давлатларидаги мақсадли



фондлар фаолияти бўйича ҳам транспарентлик индекси аниқланмаган. Мақсадли фонд молиявий маблағлари ҳам ашё экспортига боғлиқ бўлган мамлакатлар мақсадли фондлари фаолият шаффофлиги индексига қарайдиган бўлсак, Қозоғистон, Саудия Арабистони, Қатар, Эрон, Кувайт ва Россияда бу кўрсаткич 5 баллга тенглигини кўри-шимиз мумкин.

Мақсадли фондлар шаффофлигини аниқлашнинг иккинчи усули Халқаро Валюта фондига аъзо 26 та давлат томонидан тасдиқланган ва умумэтироф этилган қоидаларга асосланган Сантьяго принциплари ҳисобланади.

Шаффофлик принциплари бу-иқтисодиёти ривожланган мамлакатлар ва бозор энди шаклланаётган мамлакатлар мақсадли фондлари бошқарувчиларининг фондлар фаолиятини янада аниқроқ тушунишни таъминлайдиган комплексли асослар яратиш бўйича биргаликдаги ҳаракатлари натижасидир. Сантьяго принциплари мақсадли фондларнинг мақсадлари ва инвестицион фаолиятни тегишлича акс этти-радиган умумэтироф этилган қоидалар ва амалиётни ифодалайди.

Бу принциплар қуйидаги фундаментал позицияларга асосланади:

- рискларни бошқариш ва ҳисобдорлик, тегишлича операцион назоратни кўзда тутадиган фондни бошқаришни ташкилий шаффоф ва мустақкам структурасини қўллаб-қувватлаш;
- мақсадли фондларнинг инвестициялари амалга ошириладиган мамлакатларда очиб бериладиган ахборотни акс эттириш бўйича барча ҳуқуқий меъёрларга риоя қилинишини таъминлаш;
- мақсадли фондлар фақат иқтисодий ва молиявий рискни ҳисобга олган ҳолда, шунингдек, даромадлилик нуқтаи назаридан инвестиция киритишининг кафолат-ланиши;
- глобал молия тизими барқарорлиги ҳамда инвестициялар ва капитал эркин оқи-мини қўллаб-қувватлашга кўмаклашиш.

Сантьяго принциплари 24 та принципни ўз ичига олади. Бу 24 та принципни шартли учта катта гуруҳга бўлишимиз мумкин:

- Фондларнинг ҳуқуқий асослари, мақсадлари ва молиявий маблағларининг мам-лакат макроиқтисодий сиёсатларига мувофиқлиги;
- Фондларнинг институционал асослари ва бошқарув тузилишига тегишли принциплар;
- Инвестиция ва рискларни бошқариш тизимига тегишли принциплар.

Мақсадли фондларга эга бўлган кўпгина давлатлар Сантьяго принципларининг 50 фоизини ҳам бажара олмайдилар. Бундай мақсадли фондлар яқин шарқ мамлакатлари, Осиё мамлакатлари, Россия Федерацияси ва бошқа давлатлар ҳиссасига тўғри келади. Шу қаторида Ўзбекистон Республикаси Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси ҳамда бир қатор бошқа мақсадли жамғармаларнинг максимал шаффофлиги таъминланмаган мақсадли фондлар сирасига киради.

Бизнинг фикримизча Ўзбекистон Республикаси Тикланиш ва тараққиёт жамғар-маси ҳамда бир қатор бошқа мақсадли жамғармаларнинг шаффофликни таъминлан-маганлиги қуйидаги салбий жиҳатларга эга:

Биринчидан, Ўзбекистон Республикаси Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси ҳамда бир қатор бошқа мақсадли жамғармаларнинг консолидациялашган бюджет тарки-бининг бир қисми эканлиги, уларнинг фаолияти бўйича халқ олдида ҳисобдорлиги мавжуд бўлишидан келиб чиқиб жамғарма маблағлари ҳам бюджет маблағларига тенг маблағлар ҳисобланади. Бюджетда келтирилган Очқлик принципи талаблари жамғарма фаолияти учун ҳам бирдек таалуқли ҳисобланиб, ташкил топганига 15 йил бўлишига қарамай бу принцип бажарилмаган;

Иккинчидан, Ўзбекистон Республикаси Ҳаракатлар стратегиясида Давлат маблағ-лари ҳақидаги маълумотларнинг шаффофлигини таъминлашга алоҳида эътибор қаратилганлиги, Президентимиз Ш.Мирзиёев тамонидан ҳар бир соҳада очқлик ва шаффофлик принципига амал қилиш устувор вазифа этиб белгиланаётганлигига қарамай бу соҳада амалга оширилаётган ишларнинг сустлиги;

Учинчидан, давлат ва ҳудудий дастурларни, инвестиция лойиҳаларини ишлаб чиқиш ҳамда амалга оширишда очқлик ва шаффофлик даражасининг пастлиги мазкур соҳада жамғарма ҳисобидан молиявий маблағлар мақсадсиз ва самарасиз сарфланиши, шунингдек турли хил суиистеъмолчилик ҳолатларини келтириб чиқаришга имкон беради;

Тўртинчидан, жамғарма маблағларидан самарали фойдаланмаслик, инвестицион лойиҳаларнинг натижадорлиги инобатга олинмаслиги, маблағларни талон-тарожлик қилиш рискларининг мавжудлиги ва бошқалар.

Хулоса ва таклифлар



Юқоридаги фикрлардан келиб чиққан ҳолда Ўзбекистон Республикаси Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси ҳамда бир қатор бошқа мақсадли жамғармаларнинг фаолияти очиклиги ва шаффофлигини таъминлаш нуқтаи назаридан жамғармалар фаолияти бўйича куйидаги маълумотлар эълон қилинишига алоҳида эътибор қаратиш лозим:

- Жамғарма фаолияти тарихи, ташкил топиш сабаблари, молиявий маблағлари шакллантириш манбалари тавсифи, давлат мулки таркибини тақдим этиши;
- Жамғарма чораклик ва йиллик ҳисоботларининг эълон қилиниши;
- Жамғарма йиллик ҳисоботлари мустақил аудиторлик текширувлари натижа-ларини тақдим этиши;
- Жамғарманинг корпоратив тузилмалар (хўжалик жамиятлари) устав капиталидаги иштироки ва улар самарадорлигини баҳоланиши;
- Жамғарма инвестицион портфели ва унинг бозор қиймати, жамғарма даромад-лилиги, риси, диверсификация даражаси, шунингдек жамғарма бошқарув харажат-лари тўғрисидаги маълумотларни тақдим этиши;
- Жамғарма инвестиция фаолияти кўлами ва географиясини тақдим этиши (фақат битта давлат бўйича, ҳудудлар бўйича ёки хорижий давлатларга ҳам);
- Бошқа институтлар билан биргаликда амалга оширилаётган лойиҳалар ҳақида маълумотлар;
- Жамғарма инвестициялашнинг этика меъёрларига риоя қилиш мажбурияти билан инвестиция сиёсатини амалга ошириш даражаси;
- Жамғарманинг маблағларини бошқарувчи ташқи менежерларнинг мавжудлиги (агар мавжуд бўлса);
- Жамғармаларга максимал молиявий мустақиллик берилишини таъминлаш;
- Жамғарманинг веб сайти давлат ва хўжалик бошқаруви органлари, маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг расмий веб-сайтига қўйиладиган асосий талабларга мувофиқлиги.

Жамғарма фаолияти бўйича маълумотларни расман чоп этиш бўйича чекловларни олиб ташлаш ва фаолият очиклигини таъминлашда юқоридагиларга устуворлик берилиши юқорида келтирилган халқаро принципларга мувофиқликни таъминлайди.

Бу эса бир томондан Ўзбекистон Республикасининг мақсадли кредит рейтингини олишни таъминлаш ҳамда халқаро рейтинг агентликлари ва инвесторлар учун мамла-катимиз иқтисодий салоҳияти ҳамда инвестицион жозибадорлигини тўлақонли намойиш этишга имкон берса, иккинчи томондан давлатга бўлган фуқаролар ишон-чини оширишда, ички ва ташқи инвесторларни ишончини мустаҳкамлашга ҳизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармон
2. 2019 йил январдаги ПФ-5614-сонли “Иқтисодиётни янада ривожлантириш ва иқтисодий сиёсат самарадорлигини оширишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2019 йил 17 январдаги “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республи-касини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар страте-гиясини “Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-5635-сонли Фармон
3. Пупынин К.Н. Применение зарубежного опыта функционирования суверенных инвестиционных фондов для Резервного фонда и Фонда национального благосостояния РФ. Автореф. дисс....кан. экон.наук. - Москва, 2011. - 24 с.
4. Васин Е.А. Повышение эффективности управления суверенными фондами в Российской Федерации. Автореф. дисс. кан. экон.наук. Москва, 2015.- 28 с.
5. “Ўзбекистон Республикасининг ривожланиш давлат дастурларини шакллантириш ва молиялаштиришнинг янги тартибини жорий этиш тўғрисида”ги ПҚ-3437-сонли Президент қарори, 18 декабрь 2017 йил
6. Алектораская М.М. Анализ суверенного фонда РФ // Проблемы региональной экономики: электронный научный журнал. -2013. -23 марта.
7. Devlin W., Brummitt B. A Few Sovereigns More: The Rise of Sovereign Wealth Funds. EconomicRound-up (Spring 2007. - P. 119-136
8. https://ru.qaz.wiki/wiki/Santiago_Principles.



РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ В ИННОВАЦИОННОМ РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.

Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна,
PhD докторант кафедры
«Экономика отраслей», ТГЭУ, Ташкент

Анотация: В тезесе рассматривается роль инвестиций в инновационном развитии экономики Узбекистана, определены наиболее важные задачи, стоящие перед экономикой нашей республики, для дальнейшего повышения конкурентоспособности национальной экономики.

Ключевые слова: инвестиции, иностранные инвестиции, инновации, инновационное развитие, конкурентоспособность.

Привлечение инвестиций является одним из наиболее важных факторов, определяющих экономический рост и повышение конкурентоспособности национальной экономики, а также способствующих ее интеграции в мировые производственные процессы. Приток иностранных инвестиций в экономику принимающей страны может ускорить развитие предприятий, повысить качество человеческого капитала, создать новые рабочие места, привлечь передовые технологии и стимулировать их распространение в смежные отрасли. Поэтому в последние два десятилетия отмечается усиление конкуренции за глобальные инвестиции, что, в свою очередь, ставит перед государством задачу по разработке и проведению комплексных мер экономической политики, направленных на повышение привлекательности страны для инвестиций.

Мысль о том, что инвестиции являются двигателем экономики, обеспечивающим и движение вперед, - эта аксиома любой экономической теории. С этой целью разрабатывается и реализуется определенная инвестиционная политика, формируется соответствующий инвестиционный климат. Экономические реформы, последовательно осуществляемые в независимом Узбекистане, предполагают достижения рациональных отраслевых, воспроизводственных и территориальных пропорций, развитие интеграционных процессов, обеспечение экономического роста и др. Решение всей совокупности указанных проблем тесно связано с проведением соответствующей инвестиционной политики, формированием действенной системы регулирования и поддержки инвестиционных процессов. Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев заявил что «Гарантирую надежную защиту инвестиций, неприкосновенность собственности и свободный перевод прибыли»[3].

В « Стратегии развития действий по пяти приоритетным направлениям развития Узбекистана на 2017-2021 годы» в приоритетных направлениях развития экономики отмечено, активное развития всех реальных отраслей экономики и привлечения иностранных инвестиций в инновационное развития экономики в целом.[1]

Становление Республики Узбекистан, интеграция ее экономики в мировое сообщество происходит в сложных условиях. Республика преодолевает трудности переходного периода и ищет эффективные модели будущего с учетом мировых и региональных направлений, важнейшей из которых является стремление идти по пути устойчивого развития.

Национальный аспект устойчивого развития для Республики Узбекистан определяется, прежде всего, становлением ее как суверенного государства, необходимостью быстрее выхода из социально-экономических трудностей и экологической напряженности, повышением уровня жизни населения, вхождением в мировое сообщество, сохранением добрососедских отношений с другими странами мира и взаимовыгодным сотрудничеством. [4]

В настоящее время, осуществляемая государственная научная и техническая политика страны направлена на концентрацию усилий, доступных ее научно-техническому потенциалу для решения социально-экономических проблем в условиях постепенного перехода в социально ориентированную рыночную экономику.

Эффективное и качественное функционирование отраслей экономики играет важную роль в создании условий для устойчивого роста национальной экономики, а также социального развития страны.



Инвестиции - необходимое условие осуществления инноваций. Без инноваций капитальные вложения могут оказаться неэффективными и даже вредными, продлевая будущее производство неконкурентоспособных продуктов. Более того, без инноваций инвестиции часто оказываются невозможными, поскольку заменяемое устаревшее оборудование уже не выпускается, его не найти на рынке. Поэтому основным источником инноваций, в том числе и радикальных, являются инвестиции в основной капитал.[5]

На сегодняшний день необходим переход на инновационный путь развития. Реализация инновационной политики в республике тесно связана с изменением структуры ведущих отраслей экономики, несущей научно-технический прогресс, и обеспечением масштабных качественных изменений в экономике.

Повышение роли инвестиций в обеспечении стабильного макроэкономического роста непосредственно зависит от технологической структуры инвестиций. Это объясняется тем, что относительно высокий уровень строительно-монтажных работ в технологической структуре инвестиций приведет к появлению новых производственных объектов, а высокий уровень затрат на оборудование, инструменты, инвентарь в технологической структуре инвестиций способствует техническому и технологическому перевооружению деятельности предприятий.[6]

Весьма важную роль в этих процессах могут сыграть иностранные инвестиции. Именно это обстоятельство представляет собой для нас особый интерес. Иностранные инвестиции - один из основных факторов, способствующих ускоренному экономическому развитию страны. Даже такие высокоразвитые государства как США, Германия, Франция, Япония, Великобритания и другие рассматривают постоянное привлечение иностранного капитала как необходимое средство роста их экономического потенциала, улучшения благосостояния граждан. Активизирующее влияние иностранных инвестиций наглядно доказывает и опыт стран, которые находятся в состоянии бурного экономического развития - Китай, Южная Корея, Сингапур, Малайзия и другие восточно-азиатские страны. Их правительства создали благоприятный климат, и результаты не замедлили сказаться.

Остановимся на том, какие наиболее важные задачи, стоящие перед экономикой нашей республики, можно разрешить при помощи иностранных инвестиций.

Привлечение дополнительного инвестиционного капитала. Рынок капитала в республике только начинает развиваться, поэтому он не может обеспечить требуемых объемов капитала для крупных проектов. Кроме того, затруднен доступ к твердой валюте, необходимой для закупки товаров отсутствующих на местном рынке. Иностранные инвестиции позволяют решить сразу обе эти проблемы, так как они являются источником внешнего капитала. Иностранный инвестор неограничен относительной неразвитостью местных рынков капитала или способностью страны генерировать иностранный поток наличности путем экспорта товаров.

Доступ к передовой технике. Многие предприятия республики используют устаревшие оборудование и технологии, что значительно снижает производительность труда и приводит к производству товаров более низкого качества. Это влияет на их конкурентоспособность и уменьшает возможность зарабатывать твердую валюту. Иностранные инвестиции позволяют решить эту проблему, так как инвестиционные товары воплощают передовую технику, а предприятия могут использовать новые технологии. Альтернатива покупки прав на использование технологии требует затрат дорогостоящей иностранной валюты. Инновационные процессы позволяют резко увеличить производительность труда на предприятиях республики и будут стимулировать инвестиции в них.

Доступ к передовым методам управления. Иностранные инвесторы несут с собой передовые апробированные методы управления и предоставляют возможность их изучения и использования. Такая передача опыта особенно важна в условиях создания СП, приватизации местных предприятий иностранными инвесторами. Выигрывают обе стороны - иностранная фирма-инвестор восполняет местные знания и контакты, а местные предприятия пользуются предложенными методами, чтобы повысить производительность труда и улучшить качество продукции.

Улучшение доступа к мировому рынку. Иностранные инвесторы помогут осуществить доступ к распределенным каналам и обрести опыт продажи товаров на мировом рынке, что позволит развить экспортные возможности республики и создает надежный источник



получения иностранной валюты.

Ускорение приватизации. Одно из необходимых условий перехода к рынку - успешное проведение приватизации объединения капиталов. Благодаря способности анализировать экономические возможности предприятия иностранные инвесторы окажут помощь, которая ускорит доступ к внешним источникам фондов и будет служить основой для образования капитала, если активы первоначально продаются и если требуются инвестиции для реорганизации производства, изменения его структуры. Участие иностранных инвесторов может увеличить эффективность процесса путем реализации возможностей новых приватизированных предприятий.

Инвестиции и инновации являются довольно взаимосвязанными структурными элементами рынка, следовательно, любая инвестиционная тактика, которую осуществляет то или иное предприятие, будет определенным образом связана с инновационной деятельностью.

Таким образом, в Республике Узбекистан будет осуществляться комплекс мер, направленный на дальнейшее повышение конкурентоспособности национальной экономики. [2] В соответствии с этим основные направления государственной инвестиционной стратегии можно сформулировать следующим образом:

- проведение целенаправленной политики по углублению структурных преобразований;
- всемерная поддержка приоритетных отраслей с целью обеспечения высокой конкурентоспособности отечественной продукции на внутреннем и мировом рынках и повышение экспортного потенциала страны;
- осуществление государственного финансирования приоритетных инвестиционных проектов на конкурсной основе;
- развитие производственной и социальной инфраструктуры;
- совершенствование условий для активизации инвестиционно-инновационной деятельности как отечественных, так и иностранных инвесторов.

Список использованной литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан». № УП-4947. 07.02.2017 г.
2. Указ Президента Республики Узбекистан от 21 сентября 2018 г. «О стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2019 — 2021 годы» № УП-5544.
3. Выступление Президента Ш.Мирзиёева на Узбекско-корейском бизнес-форуме в Сеуле 2 ноября 2017г.
4. Исмаилходжаев А.И. «Инвестиции и инновации в развитии экономики Узбекистана», Кадырова Ш.А., 22.03.2017г
5. Асадуллина Н.Р. Развитие интеграционных процессов в инновационной сфере в республике Узбекистан / Н.Р. Асадуллина // Экономический вестник Донбасса. - 2013. - № 2. - С. 42-52.
6. Акобиров Д.Н. Инновационная стратегия / Д.Н. Акобиров. - Т.: ТГЭУ, 2011. - 352 с.
4. Вахабов А.В. Модернизация Экономики / А.В. Вахабов, Г.Х. Разыкова. - Т.: ТГЭУ, 2014. - 157 с.



ЯШИРИН ИҚТИСОДИЁТНИ ЖИЛОВЛАШДА СОЛИҚ СИЁСАТИ МЕХАНИЗМЛАРИДАН САМАРАЛИ ФЙДАЛАНИШ

Камилов Шохижохон Рустамович
Ўзбекистон Республикаси
Банк-молия академияси магистранти
Телефон: +998977455353
kamilov.sh@mail.ru

Аннотация. Мазкур мақолада яширин иқтисодиёт кўлами кенгайиб боришининг салбий оқибатлари ёритилиб, норасмий секторга қарши Ўзбекистонда амалга оширилаётган чора-тадбирлар хусусиятлари очиб берилган. Бу борада амалга оширилаётган ислохотлар самарадорлигини янада ошириш учун ҳукумат, хусусий сектор ва жамоатчилик ўртасидаги шериклик асосида яширин иқтисодиёт доирасида хатарларни бошқаришнинг халқаро стандартларга асосланган механизмини яратиши лозимлиги кўрсатилган.

Калит сўзлар: норасмий иқтисодиёт, яширин иқтисодиёт, солиқлар, солиққа тортиш, солиқ сиёсати

Abstract: This article highlights the negative consequences of the expansion of the shadow economy and the specifics of the measures taken in Uzbekistan against the informal sector. In order to further increase the effectiveness of ongoing reforms in this area, it is necessary to create a mechanism for risk management based on international standards within the shadow economy, based on partnership between the government, the private sector and the public.

Key words and phrases: informal economy, shadow economy, taxes, taxation, tax policy

Ўзбекистонга, дунёнинг барча бошқа мамлакатлари сингари, 2020 йилда коронавирус пандемияси тарқалиши салбий таъсир кўрсатди. Пандемия оқибатларини юмшатиш учун давлат томонидан жами 82 триллион сўмлик комплекс чора-тадбирлар амалга оширилди. Хусусан, Инкирозга қарши жамғарма ташкил этилди. Коронавирусга қарши курашиш, аҳоли ва бизнесни қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари учун давлат бюджетидан 16 триллион сўмдан ортиқ маблағ ажратилди. Шу билан бирга, давлат корхоналари ва беш юз мингдан ортиқ хўжалик юритувчи субъектларга, шунингдек, қарийб 8 миллион фуқарога солиқ имтиёзлари, шунингдек, қарзларни қайтариш муддатларини кечиктириш тарзидаги жами 66 триллион сўм миқдоридан молиявий ёрдам кўрсатилди¹.

Қабул қилинган тизимли чора-тадбирлар COVID-19 нинг кенг тарқалишини олдини олди ва мамлакатда тинч ҳаёт ва барқарор иқтисодий ривожланиш давом этмоқда. Халқаро валюта жамғармаси ва халқаро рейтинг агентликлари ҳисоб-китобларига кўра, Ўзбекистон иқтисодий ўсишнинг ижобий суръатларини сақлаб туришга муваффақ бўлди.

Мамлакатимизнинг барча туманларида, шаҳарларида ва ҳар бир маҳалласида кам таъминланган оилалар, аёллар ва ёшлар билан мақсадли ишлашнинг янги тизими жорий этилди. Ушбу механизм туфайли қисқа вақт ичида 527 минг киши иш билан таъминланди.

Бундан ташқари, ўз-ўзини иш билан банд бўлган аҳолига солиқ имтиёзлари берилиши ва кўплаб чекловларнинг олиб ташланиши туфайли 500 минг кишининг қонуний меҳнат фаолияти йўлга қўйилди.

2021 йилдаги иқтисодий ислохотларнинг асосий мақсади қашшоқликни камайтириш ва аҳоли фаровонлигини оширишдир. Ушбу стратегик мақсадларга иқтисодий ўсишнинг юқори суръатлари ва ҳамма учун тенг имкониятлар яратиш орқали эришиш мумкин.

Буларнинг барчаси бозорда тенг шароитлар яратиш ва замонавий технологиялар асосида ишлайдиган ҳалол тадбиркорларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлашга асосланади. Бу эса мамлакатда яширин иқтисодиёт кўламини қисқартиришни тақозо этади.

Маълумки, иқтисодиётда норасмий сектор кўламининг кенгайиб бориши албатта давлат фискал манфаатларига зарар етказди ва шу орқали унинг ижтимоий хизматларни кўрсатиш қобилиятини заифлаштиради. Яширин иқтисодиёт адолатли жамият ва соғлом рақобат муҳитини бузади. Норасмий бандлик, ижтимоий бадалларни тўламаслик фуқароларнинг

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/4057>



кексалик чоғидаги ижтимоий таъминотига путур етказди. Кенг тарқалган норасмий иқтисодиёт жамиятда жиноятчиликни ҳам кучайтиради. Шу сабабли Ўзбекистонда хуфёна иқтисодиётга қарши курашишда барча воситалар, шу жумладан фискал инструментлардан кенг фойдаланиш йўлидан борилмоқда.

Таъкидлаш жоизки, сўнгги йилларда Ўзбекистонда иқтисодиётнинг норасмий секторини қисқартириш борасида улкан ишлар қилинди. Шулардан энг асосийси, молия тизимида, жумладан бюджет-солиқ сиёсатида туб ўзгаришлар амалга оширилганлигидир. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 июндаги “Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тўғрисида”ги ПФ-5468-сонли Фармони қабул қилиниши билан 2019-2020 йилларда мамлакат солиқ тизимида жуда катта ўзгаришлар амалга оширилдики, уларнинг натижаси ўрта муддатли истиқболда норасмий иқтисодиёт кўламининг қишқаришига хизмат қилади. Солиққа оид ислохотлардан энг асосийлари сифатида қуйидагиларни эътироф этиш мумкин:

- турли хил самарасиз махсус солиқ режимларини бекор қилиш ҳисобига солиққа тортиш тизими нисбатан бирхиллаштирилди ва шу орқали умумбелгиланган (йирик бизнес) ва соддалаштирилган (кичик бизнес) солиқ режимлари бўйича солиқ юкидаги кескин фарқланиш қисқартирилди;

- енгил солиқ режимини (айланмадан солиқни) қўллашда ишловчилар сони эмас, йиллик тушум (оборот) миқдори мезон сифатида киритилди;

- кўплаб солиқлар, жумладан ижтимоий инфратузилма солиғи, мақсадли жамғармаларга оборотдан ажратмалар бекор қилинди, шунингдек, солиқлар (ягона солиқ, ягона ижтимоий тўлов) базасини аниқлашнинг энг кам меъёрлари олиб ташланди;

- жисмоний шахслар даромад солиғининг кўп босқичли прогрессив ставкалари ўрнига бир босқичли пропорционал ставкаси жорий этилди;

- иш ҳақиға солиқлар (даромад солиғи, ижтимоий солиқ), ҚҚС ҳамда мол-мулк солиғи ставкаларини кескин пасайтириш, шунингдек корхоналар мулк солиғи объекти таркибида фақат кўчмас мулк объектларини қолдириш орқали хўжалик субъектлари солиқ юки кескин камайтирилди.

Тадбиркорлик субъектларига солиқ юкининг умумий камайтирилиши, меҳнатга ҳақ тўлаш билан боғлиқ солиқларнинг қисқартирилиши Ўзбекистонда яширин иқтисодиётни жиловлаш ҳамда норасмий бандлик ва “конверт усули”да иш ҳақи тўлаш каби иллатларни маълум даражада чеклашда муҳим омил ҳисобланади.

Амалга оширилган чора-тадбирларга қарамасдан мамлакатимизда хуфиёна иқтисодиётнинг улуши салмоқчилигича қолмоқда. Шу сабабли, Ўзбекистон ҳукумати давлат, хусусий сектор ва жамоатчилик ўртасидаги шериклик асосида яширин иқтисодиёт доирасида хатарларни бошқаришнинг халқаро стандартларга асосланган механизмининг яратиши лозим. Бунда қуйидаги стратегик вазифалар белгилаб олиниши мақсадга мувофиқ:

- давлат бошқарувида шаффофлик, ҳисобдорлик, самарадорлик ва ижтимоий шерикликни кучайтириш;

- яширин иқтисодиёт оқимини самарали назорат қилиш;

- солиқ маъмурчилиги тизимиға рақамли технологияларни кенг ва чуқур жорий этиш;

- даромад, истеъмол ва мулкни солиққа тортиш механизмларининг таъсирчан комбинациясини ишлаб чиқиш;

- адолатли рақобат, қонуний тадбиркорлик ва бандликни рағбатлантириш чораларини кўриш;

- тадбиркорлар ва фуқаролар учун маъмурий ҳамда фискал юкни камайтириш;

- яширин иқтисодиётининг зарарли таъсири ва оқибатлари тўғрисида тарғиботни йўлга қўйиш;

- солиқ фирибгарликлари ва солиқдан бўйин товлаш ҳолатлари тўғрисида ички ва халқаро маълумот алмашинувини кучайтириш.



“МЕҲНАТ МАРКАЗИ”НИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ

Ғ.С.Мустафоев

СамИСИ “Тармоқлар иқтисодиёти”

кафедраси ўқитувчиси

Тел: +998(91)5326865

gmustafoyev@gmail.com

Аннотация: Қишлоқ жойларда хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш аҳоли бандлигини оширишда долзарб аҳамият касб этади. Шу сабабли айнан “Меҳнат маркази” ана шундай масалаларни ҳал этади.

Калит сўзлар: Қишлоқ, аҳоли бандлиги, меҳнат ресурслари, меҳнат маркази, кунлик ёлланма ишчилар, доимий аҳоли, ишчи кучи.

Ўзбекистонда қишлоқ аҳолиси бандлигини оширишнинг реал натижа берадиган хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқиш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади. Шу сабабли қишлоқ аҳолисининг бандлигини таъминлашда “Меҳнат маркази”нинг ўрни муҳим ҳисобланади. Ана шундай масалаларни ҳал этишда бизлар социологик сўровномалар ўтказдик.

Кунлик меҳнат бозоридаги ёлланма ишчилардан “Меҳнат маркази” қандай хизмат турлари кўрсатишини истайсиз? деган савол билан мурожаат қилинганда, ёлланма ишчиларнинг 26 фоизи “Иш топиб бериш хизматини”, 25 фоизи эса “Ёшига ва касб-хунарига мос иш топиб беришини”, 20 фоизи “Доимий ишга жойлаштириш хизматини”, 13 фоизи “Иш стажини қайд этиш хизматини”, қолган 11 ва 5 фоизи эса иш берувчилар билан келишмовчиликлар юзага келганда ҳуқуқларини ҳимоя қилиш хизмати кўрсатишини истаганлар.

Тахлиллар социологик сўровномада иштирок этган 200 нафар ёлланма ишчилардан 84 фоизи “Меҳнат маркази” иш топиб бериш ва бошқа хизмат турларини кўрсатишини аниқлади (1-жадвал).

1-жадвал

Кунлик меҳнат бозорида “Меҳнат маркази” қандай хизмат турлари кўрсатишини истайсиз?

Жавоблар мазмуни	Ишловчилар сони, киши	Ишловчилар улуши, %
Иш топиб бериш хизматини	52	26
Доимий ишга жойлаштириш хизматини	39	20
Иш стажини қайд этиш хизмати	27	13
Ёшига ва касби-хунарига мос иш топиб беришини	50	25
Иш берувчилар билан келишмовчиликларни ҳал этиш хизмати	10	5
Ҳуқуқларимиз ва шаънимизни ҳимоя қилиш хизмати	22	11
Жами	200	100

Манба: Социологик сўров натижалари асосида муаллиф томонидан тузилди.

Шунингдек, ёлланма ишчилардан “Меҳнат маркази” Сизга қандай хизмат кўрсатгани учун унга ўз фойдангиздан маълум фоизда пул тўлашни истайсизми? мазмундаги савол берилганда қарийб ярими яъни 43 фоизи “Ҳа” деган жавобни беришган. Қолган 26 фоизи фақатгина иш топиб беришини, 22 фоизи эса “Меҳнат маркази” хизмат кўрсатгани учун ўз фойдасидан фоиз тўламаслигини ва 9 фоизи эса турли хизматларини жумладан иш берувчи ҳисобидан тўланишини ёки шарт эмас мазмундаги жавобларни белгилашган (2-жадвал).



2-жадвал

**Кунлик меҳнат бозоридаги “Меҳнат маркази” сизга ҳизмат кўрсатгани учун унга ўз
фойдангиздан маълум фойзда пул тўлашни истайсизми?**

Жавоблар мазмуни	Ишловчилар сони, киши	Ишловчилар улуши, %
Ҳа	86	43
Йўқ	43	22
Иш топиб беришини хоҳламайман	53	26
Бошқа	18	9
Жами	200	100

Манба: Социологик сўров натижалари асосида муаллиф томонидан тузилди.

Ёлланма ишчилардан кунлик меҳнат бозорининг қандай қулайликлари мавжудлиги тўғрисида сўралганда уларнинг аксарияти, яъни 44 фоизи “Келишилган иш жойига бориш ва овқатланиш харажатлари иш берувчи томонидан қопланиши”, 39 фоизи эса “Кунлик даромадга эга бўлиш” қулайлигини айтишган. Ҳатто, 3 фоизи ишни муддатидан олдин бажариб бўлишини билдирган. Қолган 5 фоизи доимий иш топиш мумкинлигини кўрсатган. Атиги 6 фоизи эса меҳнат бозорида қулайликлар мавжуд эмаслигини ва 3 фоизи эса бошқа сабабларини жумладан иш сўраб юриш ноқулай эканлигини айтишган (3-жадвал).

3-жадвал

Кунлик меҳнат бозорида қандай қулайликлар мавжуд?

Жавоблар мазмуни	Ишловчилар сони, киши	Ишловчилар улуши,%
Келишилган иш жойига бориш ва овқатланиш харажатлари иш берувчи томонидан қопланиши	87	44
Кунлик даромадга эга бўлиш	79	39
Ишни муддатидан олдин тугатиш	7	3
Доимий иш топиш осонлиги	9	5
Қулайликлар мавжуд эмас	12	6
Бошқа	6	3
Жами	200	100

Манба: Социологик сўров натижалари асосида муаллиф томонидан тузилди.

Ёлланма ишчиларга “Кунлик меҳнат бозорини давлат томонидан тартибга солиб туришини истайсизми?” деган савол билан мурожаат қилинганда, уларнинг 60 фоизи “Ҳа истайман”, 22 фоизи “Йўқ истамайман”, 18 фоизи эса “Зарурат сезмайман” деган жавобларни белгилашган (4-жадвал).

4-жадвал

Кунлик меҳнат бозорини давлат томонидан тартибга солиб туришини истайсизми?¹

Жавоблар мазмуни	Ишловчилар сони, киши	Ишловчилар улуши, %
Ҳа истайман	119	60
Йўқ истамайман	45	22
Зарурат сезмайман	36	18
Жами	200	100

Манба: Социологик сўров натижалари асосида муаллифлар томонидан тузилди.

Бундан кўринадики кунлик меҳнат марказини ташкил этиш ва давлат томонидан тартибга солиш учун ҳуқуқий асосни яратиш, меҳнат кучларининг ҳолатини тўғри баҳолаш орқали унинг иқтисодий механизмига таъсир доираси унумли тақсимланади. Шу орқали қишлоқ аҳолисининг доимий бандлиги таъминлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мардонов Б.Б., Мустофоев Ғ.С. Кунлик меҳнат бозори ҳолатини ўрганиш ва уни тартибга солиш (социологик сўров натижалари). Рисола. Самарқанд-2020 й.- 48

¹ Мардонов Б.Б., Мустофоев Ғ.С. Кунлик меҳнат бозори ҳолатини ўрганиш ва уни тартибга солиш (социологик сўров натижалари). Рисола. Самарқанд-2020 й.– 18 бет.



ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРДА “МЕҲНАТ МАРКАЗИ”НИ ТАШКИЛ ЭТИШДАГИ ВАЗИФАЛАР

Ғ.С.Мустафоев

СамИСИ “Тармоқлар иқтисодиёти” кафедраси ўқитувчиси

Тел: +998(91)5326865

gmustafoyev@gmail.com

Аннотация: Аҳоли бандлигини ошириш айниқса қишлоқ жойларда яшовчи аҳоли бандлигини таъминлаш долзарб аҳамият касб этади. Шу мақсадлардан келиб чиқиб қишлоқ жойларда меҳнат марказлари орқали аҳоли бандлигини таъминлаш, унинг фаровонлигига хизмат қилиши ёритилган.


Калит сўзлар: Қишлоқ, аҳоли бандлиги, меҳнат ресурслари, меҳнат маркази, кунлик ёлланма ишчилар, доимий аҳоли, ишчи кучи, фаровонлик, вазифалар.

Дунё аҳолисининг 45,3 фоизи қишлоқ жойларда истиқомат қилади¹. Ўзбекистонда ҳам жами аҳолининг қарийб 50,0 фоизи қишлоқ жойларига тўғри келади². Маълумотларга қараганда жаҳондаги жами қашшоқ аҳолининг 70 фоизи ҳам айнан қишлоқ жойларда яшовчи аҳолидир³. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг 2030 йилга мўлжаллаган тараққиёт дастурида хизмат кўрсатиш соҳаси қишлоқ аҳолисини иш билан таъминлаш ва камбағалликни барҳам беришда муҳим аҳамият касб этиши таъкидланган. Шу сабабли қишлоқ жойларда “Меҳнат марказларини ташкил этиш аҳоли фаровонлигини оширишга хизмат қилади.

Кунлик меҳнат бозоридаги ёлланма ишчи кучлардан мамлакат равнақи йўлида унумли фойдаланиш мақсадида Самарқанд вилоятининг бир неча туманларида социологик тадқиқот ўтказилди. Сўровларга жами 200 нафар ёлланма ишчилар жалб қилинган бўлиб, улардан 136 нафари (68%) эркеклар, 64 нафари (32%) аёллардан иборат (1-диаграмма).

1-диаграмма

Сўралганларни жинси бўйича таркиби



Манба: Социологик сўров натижалари асосида муаллиф томонидан тузилди.

Тадқиқот жараёнида ёлланма ишчиларнинг ёши ҳам ўрганилди. Ўрганиш жараёнида маълум бўлдики кунлик меҳнат бозоридаги ёлланма ишчиларнинг аксарияти меҳнатга лаёқатлиларни ташкил этган. Жумладан, 18-24 ёш атрафдагилар 27 фоизни, 24-30 ёшдагилар 22 фоизни, 30-36 ёшдагилар 26 фоизни, 36 ёшдан юқори бўлганлар эса 25 фоизни ташкил этган (1-жадвал).

¹ https://www.eurekalert.org/pub_releases/2019-03/ifpr-2gf032219.php

² Ўзбекистон рақамларда. Статистик тўплам Тошкент., 2020 йил. 54 б.

³ <https://www.undp.org/content/undp/en/home.html>



Сўралганларнинг ёши бўйича таркиби


Жавоблар мазмуни	Ишловчилар сони, киши	Ишловчилар улуши, %
18-24	53	27
24-30	44	22
30-36	52	26
36 ёшдан юқори	51	25
Жами	200	100

Манба: Социологик сўров натижалари асосида муаллиф томонидан тузилди.

Тадқиқотларимиз республикаимизнинг турли минтақаларида ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш жараёнида фойданланмасдан, эътибордан четда қолаётган ресурсларни аниқлади. Шулардан бири, кунлик меҳнат бозорига чиқаётган ишчи кучларидир. Улар бизнинг ҳисобимиз бўйича ҳар бир вилоятда қарийб минг кишини ташкил этади. Кунлик меҳнат бозорига чиқувчилар кунлик даромад топиш билан рўзгорини тебратаяпти. Иш берувчининг талабини қондираяпти. Қайсидир жиҳатдан миллий маҳсулот ва хизмат кўрсатишда иштирок этаяпти. Демакки, кунлик меҳнат бозори ҳам мамлакат тараққиёти учун муҳим роль ўйнайди. Кунлик меҳнат бозоридаги ишчилардан қуйидаги савол берилганда, “Кунлик меҳнат бозорида ишингизни қонуний расмийлаштиришни хоҳлайсизми?”. 74 фоиз ишловчилар “Ҳа” - деган жавобни, 26 фоизи эса “Йўқ” - деган жавобни белгилашган. Ушбу маълумотлардан кунлик меҳнат бозоридаги ёлланма ишчилар яхши даромад олаётганлигини билиш мумкин (2-диаграмма).

2-диаграмма

Кунлик меҳнат бозорида ишингизни қонуний расмийлаштиришни хоҳлайсизми ?



Манба: Социологик сўров натижалари асосида муаллиф томонидан тузилди.

Ёлланма ишчилардан “Кунлик меҳнат бозорида ишингизни қонуний расмийлаштиришни хоҳлайсизми?” деган саволга “Ҳа” деб жавоб берган ишчилардан сабаби сўралганда уларнинг 37 фоизи қонундаги имтиёзлардан фойдаланишини, 33 фоизи иш стажи инobatга олинишини, 19 фоизи эса ҳуқуқларим ҳимояланишини истайман - деган жавобларни белгилашган. Қолган 11 фоизи кунлик бозорни тартибга солиш учун зарур эканлигини айтишган. Демак, кунлик меҳнат бозори ёлланма ишчиларнинг қўшимча даромад топиш имконини берар экан, ушбу бозор учун маълум тартибни жорий этиш ва унда ёлланма ишчиларнинг ҳуқуқлари ва инсоний шаъни ҳимоя қилиниши ҳамда қонунда кўрсатилган бошқа имтиёзлардан фойдаланиши назарда тутилиши керак.

Юқоридаги таҳлиллардан келиб чиқиб “Меҳнат маркази” фаолияти юқори самарага эришиши учун қуйидаги вазифаларни амалга ошириш керак эканлигини кўрсатади:

Биринчиси, кунлик меҳнат бозорида давлат хусусий шерикчилиги асосида “Иш марказини” ташкил этиш ва унда ёлланма ишчиларни жалб этиш лозим.

- “Меҳнат марказига” мурожаат қилинг!
- “Меҳнат маркази” сиз учун ташкил этилган!
- “Меҳнат маркази” ҳақида нималарни биласиз?

Иккинчиси, “Меҳнат маркази” фаолиятини ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамлаш. Бунинг учун “Меҳнат маркази фаолияти” тўғрисида қонун ишлаб чиқиш.

Учинчиси, “Меҳнат марказига” жалб этишнинг рағбатлантириш механизмини ишлаб



чиқиш ва уни амалиётга жорий этиш. “Меҳнат маркази” орқали кунлик ишга жойлашиб даромад топаётган ишчиларни молиявий қўллаб-қувватлаш:

- Истеъмол кредитини олишда давлат кафолат бериши;
- Соғлиғини тиклаш учун ўзи истеъқомат қилаётган оилавий поликлиникаларда бепул даволанишига йўлланмалар бериш;

- Фарзандларини ёзги дам олиш масканларига жойлаштиришга ёрдамлашиш;

Тўртинчиси, кунлик ишчиларни кунлик топаётган даромадларидан мажбурий солиқ ундириш эмас балки, уларнинг ўз ихтиёрига қўйиб, кунлик топаётган даромадидан келгусида масалан айтайлик, ишга яроқсиз бўлган вақтларда ундан фойдаланиш учун пенсия жамғармасига ўзи истаган миқдорда маблағ қўйишини таъминлаш лозим. Бу эса кунлик ишловчиларни келгусида кимгадир боқиманда бўлмаслигига, ёки мажбурий тўловларни, жумладан коммунал тўловларини мунтазам тўланишига эришилади ва бу жамиятга, ўзига ҳам катта фойда беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. www.stat.uz Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари.
2. Мардонов Б.Б., Мустофоев Ғ.С. Кунлик меҳнат бозори ҳолатини ўрганиш ва уни тартибга солиш (социологик сўров натижалари). Рисола. Самарқанд-2020 й.- 48
3. https://www.eurekalert.org/pub_releases/2019-03/ifpr-2gf032219.php
4. Ўзбекистон рақамларда. Статистик тўплам Тошкент., 2020 йил.
5. <https://www.undp.org/content/undp/en/home.html>



САНОАТ КОРХОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН МАРКЕТИНГНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Хайтбоева Нигора Бакмаматовна

Урганч Давлат университети

“Иқтисодиёт” кафедраси ўқитувчиси.

Эшбаева Шакаржон Махмуджон кизи

Урганч Давлат университети

Туризм ва иқтисодиёт факультети талабаси

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантиришда инновацион маркетингнинг аҳамияти доирасида билимлар даражаси ўрганилган, шунингдек, мавжуд тадқиқотлар таҳлили асосида саноат корхоналарида инновацион маркетингни амалга ошириш йўналишлари аниқланган.

Калит сўзлар: саноат, маркетинг, инновация, инвестиция, тадбиркорлик.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган иқтисодий ислохотлар жараёни саноат тармоқлари фаолиятини сезиларли даражада ўзгартиришни, улар фаолиятини инновацион маркетинг талабларига мослаштиришни талаб қилмоқда. Инновацион фаолият бозор муносабатлари шароитида тадбиркорликнинг илғор шакли бўлиб, у бозор иқтисодиёти илмий-техника тараққиётини ривожланиши учун реал имкониятлар яратади.

Мамлакатимиз Президенти таъкидлаганларидек, «... иқтисодий ўсишга, аввало, рақобатдош саноат занжирларини яратиш ҳамда бундай лойиҳаларга инвестицияларни кўпайтириш орқали эришилади. Гарвард университети тадқиқотларига кўра, мамлакатимиз 50 дан ортиқ саноат маҳсулотларини ишлаб чиқаришда барча имкониятлар ва нисбий устунликларга эга. Айниқса, нефтгаз-кимё, металлургия, машинасозлик, электротехника, фармацевтика, қурилиш материаллари, тўқимачилик, чарм-поябзал, озиқ-овқат ҳамда “яшил иқтисодиёт” билан боғлиқ саноат тармоқлари иқтисодиётимиз “драйверлари”га айланиши учун барча етарли шароитлар мавжуд”¹

Бугунги кунда саноат тармоқлари ва корхоналарини модернизациялашга, техник-технологик янгиланишга эътибор қаратилмоқда. Шунинг учун дунё бозорларига чиқишда инновацион маркетинг технологияларидан самарали фойдаланишни тақозо этмоқда.

Инновацион маркетинг инновациялар бозори конъюнктурасини ўрганиш, инновацион лойиҳани бизнес-лойиҳалаштириш, уни амалга оширишдан тортиб инновацияларни бозорга ҳаракатлантириш, инновациялар диффузияси ва даромад олишгача бўлган бутун инновацион циклнинг тизимли интеграциясини ифодалайди.

“Инновацион маркетинг стратегияси корхоналарга миқдорларнинг талабини қондириш ва миқдорлар учун катта қиймат яратиш учун ўз ресурсларидан самарали фойдаланишга имкон берадиган янги ёки сезиларли даражада такомиллаштирилган маркетинг усуллари-дан фойдаланишга мажбурият сифатида тавсифланади”²

“Инновацион маркетинг аъъанавий вертикал маркетингнинг барча бошқа имкониятлари тугагандан сўнг қўлланилади. Инновацион маркетинг кейинчалик эҳтиёжни қондирадиган, бошқа мақсадларда ва ҳолатларда ишлатилиши мумкин бўлган ёки харидорнинг бошқа мақсадли гуруҳларига мурожаат қиладиган маҳсулотни сезиларли даражада ўзгартиради”³

Бизнинг фикримизча, инновацион маркетингнинг мақсади –корхоналарнинг иқтисодий ривожлантириш параметрларини ўрганиш, баҳолаш ва оптималлаштириш орқали унинг рақобатбардошлигини ошириш йўллариини ишлаб чиқишдан иборатдир.

Мамлакатимизда ҳар йили иқтисодиётнинг барча тармоқларини янада ривожлантиришга йўналтирилган кенг кўламли ислохотлар амалга оширилмоқда. Бунинг самарасида янги иш ўринлари яратилиб, аҳоли даромади кўпаймоқда. Узоқ муддатли тараққиёт стратегиясининг

¹ “Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномаси

² Hurley, R.F.,Hult, G.T.M Innovation, market orientation, and organizational learning: An integration and empirical examination(Article)/Journal of Marketing.


³ Kotler Ph., Trias de Bes, F., 2004.



ҳаётга изчил татбиқ этилаётгани Ўзбекистонга дунёнинг кам сонли давлатлари қаторида ялпи ички маҳсулот, саноат ишлаб чиқаришининг юқори ўсиш суръатларини таъминлаш имконини бермоқда. Жумладан, 2019 йилда Ўзбекистон Республикаси ялпи ички маҳсулоти (ЯИМ) ҳажми жорий нархларда 511 838,1 млрд. сўмни ташкил этди ва 2018 йил билан таққослаганда 5,6 % га ўсди. ЯИМ дефлятор индекси 2018 йилдаги нархларга нисбатан 119,2 % ни ташкил этди [2]. 2019 йил якунларига кўра, ЯИМ таркибида товарлар ишлаб чиқаришда 300 304,2 млрд. сўм, хизматлар кўрсатиш соҳасида 165 053,2 млрд. сўм миқдорида ялпи қўшилган қиймат яратилди, маҳсулотларга соф солиқлар эса 46 480,7 млрд. сўмни ташкил этди¹

1-жадвал²

2019 йилда асосий иқтисодий фаолият турлари бўйича саноат ишлаб чиқариш таркиби, %



Жадвал маълумотларидан кўринадики, ишлаб чиқарадиган саноат корхоналари томонидан ишлаб чиқарилган маҳсулотлар ҳажми 264,4 трлн. Сўмни ёки жами саноат маҳсулотларининг 79,9%ини ташкил этди.

Бизга маълумки, саноат маҳсулотлари тайёрлашда саноат тармоқларининг металлургия саноати, озиқ-овқат саноати ва енгил саноат тармоқлари мустаҳкам ўрин эгаллаб келмоқда. 2019 йил давомида металлургия саноати маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми 58 197,7 млрд. сўм, озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми 34 483,2 млрд. сўм, тўқимачилик маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми эса 31 715,5 млрд. сўмни ташкил қилган.

Саноат корхоналарида ишлаб чиқариш жараёнини янада такомиллаштириш ва хавфсизлигини таъминлашда, биринчи навбатда маҳсулот сифатини яхшилаш ва маҳаллий ва жаҳон бозоридаги рақобатбардошликка мослаштириш лозим.

Хусусан, ҳозирда бутун дунёда авж олаётган Covid-19 пандемияси даврида истеъмолчиларнинг эҳтиёжлари ва харидорларнинг хатти-ҳаракатлари тубдан ўзгарди, бу эса корхоналарнинг ўз мавқеини сақлаб қолиши учун маркетинг стратегиясида инновациялардан фойдаланиши муҳим аҳамият касб этмоқда. Масалан, истеъмолчилар ўзларини уйда изоляция қилишлари кераклиги сабабли, фирмалар тезкор маркетинг янгиликлари орқали ўзларининг онлайн бизнесларини ривожлантириш ва мустаҳкамлашга кўпроқ эътибор қаратишлари лозим.

Covid-19 инқирози пайтида корхоналар томонидан қўлланиладиган инновацион маркетинг стратегиясини янада аниқроқ таҳлилий базасини ишлаб чиқиш учун инновация мотивациясининг асосий концептуал жиҳатларини келтириш мумкин (1-расм). Ушбу параметр инқироз пайтида корхона бошдан кечирадиган таъсир даражасини аниқлайди. Агар корхона фаолияти кутилган даражадан паст бўлса, корхона муаммоларни излаб топади ва унга ечим излайди.

¹ Кишлоқ, ўрмонвабалиқхўжалиги, саноатвакурилишни ўз ичига олади

² 2019 йил Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати ахборотномаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.



Янгилик даражаси	Муаммоли вазият	Суст вазият
Паст даражада	Сезгир стратегия	Фаол стратегия
	Бу стратегия орқали корхоналар офлайн режимдан онлайн режимга ўтиш орқали мавжуд бизнесини сақлаб қолади.	Бу стратегия орқали мавжуд истемолчилар базасидан фойдаланиб, янги бизнес турлари яратилади
Юқори даражада	Жамоавий стратегия	Хамкорликдаги стратегия
	Бу стратегия орқали корхоналар бизнесни хамкорликда амалга ошириш орқали фойда олади ва шу орқали мавжуд бизнесини тиклаб олади	Бу стратеги орқали корхоналар бир-бирини тўлдирувчи хамкорлик орқали мижозлар базаси кенгайтиради, сўнгра бизнеснинг янги турларини сотиб олади

1-расм.Инновацион стратегик таҳлил

Бугунги кунда саноат корхоналари Covid-19 инкирозидан азият чекаётган корхоналар хатарларни енгиб ўтиш ўзига хос маркетингнинг инновацион стратегиясини танлаши ва амалга ошириши лозим.

Бизнинг фикримизча, саноат тармоқларида инновацион маркетинг чора-тадбирларини амалга ошириш ишлаб чиқариш корхоналарига қуйидаги имкониятлар беради:

1. Янги ёки такомиллаштирилган технологиялар, маҳсулотлар, асбоб-ускуналар, материаллар ва ҳ.к. жорий қилиш ҳисобига маҳсулот ишлаб чиқаришнинг ўсишини таъминлаш
2. Инновацион маркетинг соҳасида юқори малакали кадрлар тайёрлаш ва қайта тайёрлаш тизимлари яратиш;
3. Корхоналар инновацион маркетинг фаоллигини оширишни таъминлайдиган, самарали фаолият кўрсатадиган, бозорга йўналтирилган инновацион тизим яратиш;
4. Ички ва ташқи бозорларда саноат ва фан-техника маҳсулотларини янада силжитиш учун шароитлар яратиш.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномаси.



МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНИШИДА ИНФРАТУЗИЛМАНИНГ АҲАМИЯТИ

Сапаева Н.Қ.

Урганч давлат университети ўқитувчи

Калит сўзлар. Минтақа, инфратузилма, модернизация, диверсификация, институтционал, телекоммуникация, инновацион инфратузилма.

Ривожланаётган мамлакатларда инфратузилмани такомиллаштириш бутун дунё бўйлаб инфратузилма лойиҳаларини амалга ошириш учун кенг кўламли халқаро ривожланиш ташкилотларини яратган энг ривожланган мамлакатлар учун устувор вазифага айланди. Мамлакат минтақаларидаги ички муҳим омиллардан бири инфратузилма ва иқтисодий субъектларнинг ўзаро боғлиқлигини таъминлаш ҳисобланади. Минтақалар иқтисодиёти ривожланишини таркибий тадқиқ этишда ҳам асосий эътибор, унинг ташкил этувчи элементларига қаратилади. Инфратузилма фаолияти натижасида, йирик икки бўғин бўлиб ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш ўзаро мувофиқлиги таъминланади. Шу билан бирга, минтақалар барқарорлигини таъминлаш икки жиҳат билан асосланади. Инфратузилмани ривожлантириш кўпинча иқтисодиётни тиклаш ва барқарорлаштириш ҳаракатларининг энг устувор йўналиши ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сон Фармонининг 1-илоvasида келтирилган «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси»да «саноат корхоналари ва бошқа ишлаб чиқариш объектларини жойлаштиришга қулай шарт-шароитлар яратиш, хусусий тадбиркорликни кенг ривожлантириш ҳамда аҳолининг турмуш шароитини яхшилаш мақсадида ҳудудларнинг ишлаб чиқариш, муҳандис-коммуникация ва ижтимоий инфратузилма тармоқларини янада ривожлантириш ва модернизация қилиш»¹ вазифаси кўйилган. «Инфратузилманинг роли, шунингдек, инфратузилманинг атроф-муҳитга таъсирини чеклаш, иқлим ўзгаришини юмшатиш ва барқарор амалиётни тарғиб қилиш орқали иқтисодий барқарорликни таъминлаш учун муҳимдир»². «Инфратузилмани ривожлантириш иқтисодий тараққиётнинг асосий омили ва самарадорликни оширишда муҳим омил ҳисобланади»³.

«Инфратузилмани ривожлантириш - бу технологик тараққиётнинг кўринадиган белгиларидан бири. Кўпгина тадқиқотларда транспорт инфратузилмаси минтақаларни ривожлантиришнинг энг муҳим омилларидан бири эканлиги, бу сизга янги корхоналар яратишга ёки бошқа минтақалар билан алоқаларни ўрнатишга имкон беради. Иқтисодий ўсишга турли хил омиллар таъсир қилади, аммо уларнинг барчаси тўғридан-тўғри ёки билвосита инфратузилмани ривожлантириш билан боғлиқ»⁴. Олимлар инфратузилманинг асосий элементлари сифатида – энергетика, транспорт, қишлоқ хўжалиги, саноат, алоқаларни қамраб олишини таъкидлаб ўтганлар. Шунингдек, бошқа бир манбада инфратузилманинг 9 та турга ажаратилади: илмий фаолият ва инновацион инфратузилма, муҳандислик, транспорт, туристик, инвестицион, уй-жой хўжалиги, бозор, ижтимоий ва кичик бизнес инфратузилмалари⁵. Айни дамда, ишлаб чиқариш ва ижтимоий инфратузилма ривожланиши минтақа иқтисодиётига биринчи даражали таъсир этувчи объектлар ҳисобланса, иккинчи даражада молиявий, инвестицион, бозор ва қурилиш инфратузилма турлари ўрганилади.

Минтақа иқтисодиёти ривожланишида инфратузилма хизматининг мавжудлиги ва

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сон Фармонининг 1-илоvasи «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси».Lex.uz

² A. Ebobisse. The IFC Global Infrastructure Project Development Fund. IFC Infraventures, Washington (2015).

³ M, N. Loksha, N. Mahesha. Impact of road infrastructure on agricultural development and rural road infrastructure development programmes in India. International Journal of Humanities & Social Science Invention, 5 (6) (2016), pp. 1-7.

⁴ C.F. Wu, Y.P. Lin, L.C. Chiang, T. Huang. Assessing highway's impacts on landscape patterns and ecosystem services: a case study in Puli township, Taiwan. Landsc. Urban Plann., 68 (2014), pp. 67-71.

⁵ Иванова Н.А. Классификация объектов региональной инфраструктуры // Современные наукоемкие технологии. Региональное приложение. 2014, №1 (37). – с. 38-43.



самарали фаолияти минтақадаги барча субъектларнинг ўзаро алоқаларини таъминлаб беради. Минтақада инфратузилмага боғлиқ бўлмаган соҳа ёки тармоқ мавжуд эмас. Бу эса, бозор муносабатларига хос ижобий хусусият ҳисобланади. Жумладан, ушбу хизмат ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишни, энг асосийси, ишлаб чиқариш, айрибошлаш, тақсимот ва истеъмолнинг мувоффақиятли амал қилишини таъминлайди. Товар ва пул муносабатлари узлуксиз бўлиб, даромад ҳамда харажатлар доиравий айланиши барқарор бўлади.

Минтақа иқтисодиётини ривожланиши ишлаб чиқариш ва ижтимоий инфратузилманинг ҳолатига қараб белгиланади. Шунингдек, инфратузилма ўсиш нуқталарини амал қилишига, ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг устувор йўналишларига мувофиқ мультипликатив самарани ҳам таъминлайди.

Инфратузилма тизим сифатида иқтисодиёт таркибини меъёрий амал қилишини таъминлайди. Жумладан, инфратузилманинг элементлари иқтисодий тизимнинг барқарор ва мувозанатли ривожланишига олиб келади. Инфратузилма объектларининг мавжудлиги мазкур боғланиш даражасини мустаҳкамлайди. Инфратузилманинг ҳудудий ривожланишдаги аҳамияти иқтисодий субъектларнинг ўзаро алоқасини таъминланиши билан ҳам асосланади. Бу эса, ишлаб чиқариш ҳажмининг ўсишини, ишловчилар сони ошишини, шунингдек, барча субъектлар истеъмолини максимал қондирилишини таъминлайди.

Инфратузилма минтақа иқтисодиётининг ажралмас қисми бўлиб, мазкур ҳудудда иқтисодий фаолият ривожланишини, рағбатлантириш шарт-шароитларини яратади. Яъни, бир сўз билан айтганда, тадбиркорлик муҳитини таъминлайди ҳамда аҳоли турмуш тарзини яхшилади.

Инфратузилма маҳсулот (хизмат) ишлаб чиқарувчи ва истеъмолчиларни ягона маконда боғлайди, ишлаб чиқариш микёси ва истеъмол ўртасидаги зиддиятни бартараф этади. Шунингдек, барча иштирокчилари томонидан қўйилган мақсадларга эришишни таъминловчи муассасалар ва воситачилик тузилмалари тизимини намоён этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони.

2. A. Ebobisse. The IFC Global Infrastructure Project Development Fund. IFC Infraventures, Washington (2015).

3. M, N. Lokesha, N. Mahesha. Impact of road infrastructure on agricultural development and rural road infrastructure development programmes in India. International Journal of Humanities & Social Science Invention, 5 (6) (2016), pp. 1-7.

4. C.F. Wu, Y.P. Lin, L.C. Chiang, T. Huang. Assessing highway's impacts on landscape patterns and ecosystem services: a case study in Puli township, Taiwan. Landsc. Urban Plann., 68 (2014), pp. 67-71.

5. Иванова Н.А. Классификация объектов региональной инфраструктуры // Современные наукоемкие технологии. Региональное приложение. 2014, №1 (37). – с. 38-43.



ХОРАЗМ ВИЛОЯТИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ РИВОЖЛАНИШ БАРҚАРОРЛИГИНИ СТАТИСТИК ТАҲЛИЛИ

Холмуротов Фозил Саробаевич
УрДУ “Иқтисодиёт” кафедраси ўқитувчиси
+998937536633
fozilholmurotov@gmail.com
fozil.xolmurotov@urdu.uz

Аннотация: Ушбу мақолада Хоразм вилоятида қишлоқ хўжалиги ривожланишининг барқарорлиги статистик усуллар асосида баҳоланган. Таҳлил натижалари асосида кейинги 20 йилда вилоятда қишлоқ хўжалиги, хусусан деҳқончилик ҳамда чорвачиликнинг барқарор ўсиши таъминланганлиги аниқланди.

Калит сўзлар: қишлоқ хўжалиги, деҳқончилик, чорвачилик, барқарор ўсиш, ўртача квадратик четланиш, дисперсия, асимметрия.

Қишлоқ хўжалиги Хоразм вилоятининг ижтимоий-иқтисодий тараққиётини таъминлаш, муҳим бўлган иқтисодий муаммоларни бартараф этишда стратегик аҳамиятга эга тармоқлардан ҳисобланади. Хусусан вилоятда яратилган ялпи ҳудудий маҳсулот (ЯҲМ) нинг 47,7 фоизи, иқтисодиёт тармоқларида банд бўлган жами 736,5 минг кишининг 258,9 мингги, яъни 35,2 фоизи айнан қишлоқ хўжалиги соҳасига тўғри келади [4].

Қишлоқ хўжалигини мамлакат ва унинг ҳудудларида ижтимоий-иқтисодий тараққиёт ва барқарорликни таъминлашдаги аҳамияти ҳукуматимиз томонидан қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг узоқ муддатли стратегияларини ишлаб чиқиш, соҳа ривожини таъминлашнинг муҳим бўлган йўналишларини танлаб олиш, барқарор ўсишни таъминлаш бўйича махсус дастурлар ишлаб чиқилишига сабаб бўлмоқда. Жумладан Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 - 2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5853-сон Фармони мамлакат ва унинг ҳудудларида қишлоқ хўжалигини ривожлантириш йўналишларини белгилаб беришга хизмат қилувчи муҳим ҳужжат вазифасини бажаради.

Мазкур стратегиядан кутилаётган асосий натижалар сифатида республика ҳудудларида суғоришда сув тежовчи тизимларидан фойдаланаётган майдонларни кенгайтириш, ушбу тизимларни жорий қилишни рағбатлантириш механизмлари такомиллаштириш, ҳудудларни ихтисослаштириш, бир жойда бир хил маҳсулотларни етиштириш, агроинновацион ғояларни жорий этиш, ҳосилдорликни ошириш ва маҳсулот сифатини яхшилашга шароит яратиш каби муҳим масалалар ва уларни ечиш йўналишлари ишлаб чиқилганлигини кўрсатиб ўтиш мумкин [1].

Қишлоқ хўжалигини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, барқарор ривожини таъминлаш борасида амалга оширилаётган чора-тадбирлар натижасида мамлакат ва унинг ҳудудларидаги соҳанинг аҳамияти ва роли янада ошиб бормоқда. Тадқиқотимиз объекти бўлган, Хоразм вилояти маълумотларига кўра қишлоқ хўжалигида маҳсулот етиштириш ҳажми кейинги 20 йилда 2,8 баробарга ошишга эришилди. Ушбу натижага эришиш учун йиллик ўртача ўсиш даражаси 5,1 фоизни ташкил қилган. Бу эса ўз навбатида қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштиришда муҳим ишлаб чиқариш омили бўлган ернинг ҳар бир гектаридан олинadиган масулот миқдорини мос равишда 2,8 баробарга ошишини таъминлаган.

Қишлоқ хўжалиги ва унинг соҳаларида маҳсулот етиштириш динамикаси барқарорлигини таҳлил қилиш мақсадида 2000-2019 йилларда умумий қишлоқ хўжалиги, чорвачилик ва деҳқончилик маҳсулотлари етиштиришнинг тавсифловчи статистика кўрсаткичлари таҳлилин келтириб ўтмоқчимиз. Мазкур таҳлилни амалга ошириш учун мавжуд маълумотлар инфляция даражасини инобатга олган ҳолда реал қийматларга ўтказилган. MsExcel дастури ёрдамида амалга оширилган таҳлиллар асосида қуйидаги натижаларга эга бўлинди (1-жадвал).

Таҳлил натижаларига кўра Хоразм вилоятида етиштирилган солиштирма нархларда ҳисобланган ялпи қишлоқ хўжалиги маҳсулотининг ўртача қиймати 1760.3 миллиард



сўмни ташкил қилгани ҳолда унинг 53.3 фоизи чорвачилик маҳсулотлари 46.7 фоизи деҳқончилик маҳсулотларига тўғри келмоқда.

1-жадвал.

Қишлоқ хўжалиги ва унинг соҳаларида маҳсулот етиштириш динамикасининг сататистик таҳлили [4].

	Қишлоқ хўжалиги	Чорвачилик	Деҳқончилик
Ўртача	1760.3	938.3	822.0
Ўртача хаторлик	127.6	68.0	59.6
Медиана	1718.7	916.1	802.6
Мода	#Н/Д	#Н/Д	#Н/Д
Ўртача квадратик четланиш,	570.6	304.2	266.5
Дисперсия	325627.5	92522.0	71002.8
Экссесс	-1.3	-1.3	-1.3
Асимметрия	0.1	0.1	0.1
Интервал	1694.6	903.3	791.3
Минимум	916.1	488.3	427.8
Максимум	2610.8	1391.6	1219.1
Йиғинди Сумма	35205.3	18765.9	16439.4
Кузатувчлар сони	20.0	20.0	20.0
Энг юқори қиймат	2610.8	1391.6	1219.1
Энг паст қиймат	916.1	488.3	427.8
Ишончилилик даражаси (95.0%)	267.1	142.4	124.7

Мазкур жадвалда стандарт хатолик кўрсаткичи ҳам келтириб ўтилган бўлиб у қуйидаги формула асосида аниқланади [2].

$$\sigma_{\bar{x}} = \frac{\sigma}{\sqrt{n}}$$

Бу ерда: $\sigma_{\bar{x}}$ ўртача миқдорнинг стандарт хатолиги, σ – ўртача квадратик четланиш, n – кузатувлар сони.

Ўртача миқдорнинг стандарт хатолиги танламалар ўртача миқдорлари тақсимотининг ўртача квадратик четланишини ифодалайди. Кўрсаткич қанчалик кичик бўлса, шунчалик кўп кузатувлар умумий тўплам маълумотларига мос келганлигини англатади. Жадвал маълумотларидан кўриш мумкинки мазкур кўрсаткичлар етарли даражада кичик миқдорга эга бўлмоқда. Катта сонлар қонуни бўйича тўплам нормал тақсимот қонунига мос келиши учун унинг ўртача миқдори, мода ва медианаси бир хил қийматга эга бўлиши талаб қилинади, улар орасидаги фарқнинг мавжудлиги оғишни билдиради.

Жадвал маълумотлари асосида ўртача миқдор ва медиана кўрсаткичларини қиёсий таҳлилини амалга оширадиган бўлсак, уларнинг барчасида сезиларсиз фарқ кузатилиши оғиш мавжудлиги аммо у аҳамиятли даражада эмаслигини кўрсатмоқда. Демак таҳлилни амлага ошириш учун танлаб олинган йиллар бош тўпламни ўзида акс еттиради ва умумий хулосалар чиқариш учун фойдаланишга яроқли ҳисобланади. Шунингдек стандарт четланишнинг катта бўлиши тўпламдаги қийматларнинг ўртача қийматга нисбатан тарқалишини кенгроқ эканлигини, ўз навбатида кичик бўлиши эса қийматлар зичлигини ифодалайди. Нормал тақсимот қонунига кўра тўпламдаги ҳар қандай бирлик ўзининг ўртача қийматидан 3 ўртача квадратик четланиш миқдордан кам бўлган ораликка тегишли бўлиши лозим яъни $P(|\varepsilon - E\varepsilon| < 3\sigma) > \frac{8}{9}$.

Аммо экссесс кўрсаткичининг манфий қийматга эга бўлиши нормал тақсимот бўйича ёйилишнинг анча кенг бўлганлигини ифодаламақда, ушбу кўрсаткича -2 дан $+\infty$ гача бўлган қийматларни қабул қилади. Экссесс кўрсаткичи қуйидаги формула асосида аниқланади [3].



$$E_k = \frac{m_4}{\sigma_e^4} - 3$$

Бу ерда: $m_4 = E[(x - Ex)^4]$

Шу билан бирга ассиметрия коэффиценти ҳам келтириб ўтилган бўлиб, ушбу миқдор берилган тасодифий миқдорларнинг ассиметриясини тавсифлашга хизмат қилади. Мазкур коэффицент куйидагича аниқланади [3].

$$A_s = \frac{\mu_3}{\sigma^3}$$

$$\mu_3 = \frac{\sum_{k=1}^K (x_k - \bar{X})^3 * f_k}{\sum_{k=1}^K f_k}$$

Агар аниқланган коэффицент нольга тенг бўлса, симметрик тақсимот мавжуд бўлади. Шунингдек, ассиметрия коэффиценти A_s мусбат ва манфий бўлиши мумкин. Коэффицентнинг ижобий қиймати ўнг томонлама ассиметриянинг мавжудлигини кўрсатади, таҳлилларимизга кўра фойдаланилаётган тўплам маълумотларининг ассиметрия коэффиценти 0.1 га тенг бўлмоқда. ушбу кўрсаткичи етарли даражада кичик ва нольга яқин эканлиги фойдаланилаётган тўплам бирликлари нормал тақсимотга эгалигини асослайди. Юқорида амалга оширилган таҳлиларни кўсатишича кейинги 20 йилда Хоразм вилоятида қишлоқ хўжалиги ва унинг соҳалари деҳқончилик ҳамда чорвачиликнинг барқарор ўсиши таъминланган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 — 2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5853-сон Фармони
2. Жукова, А. А. Биометрия. В 3 ч. Ч. 1. Описательная статистика : пособие / А. А. Жукова, М. Л. Минец. – Минск : БГУ, 2019. – 100 с
3. Статистика: учеб. / И. И. Елисеева [и др.]; под ред. И. И. Елисеевой- М.: Проспект, 2010. - 448 с.
4. www.stat.uz (Ўзбекистон Республикаси Статистика Қўмитаси расмий сайти)

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(9-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000